



BUTUNJAHON TRIATLON ITTIFOQI BILAN HAMKORLIK KENGAYTIRILADI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Samarqand shahridagi triatlon va paratriatlon bo‘yicha jahon kubogi doirasida mamlakatimizda bo‘lib turgan Butunjahon triatlon ittifoqi rahbari Antonio Fernandes Arimanini qabul qildi.



Ushbu nufuzli global tashkilot bilan mazkur sport turini ommalashtirish va O‘zbekistonda milliy triatlon maktabini qo‘llab-quvvatlash borasidagi amaliy hamkorlikni yanada kengaytirish masalalari ko‘rib chiqildi.

Mamlakatimizda triatlon jadal rivojlanib borayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi. Milliy

federatsiya faoliyat ko‘rsatmoqda, muntazam ravishda xalqaro musobaqalar o‘tkazilmoqda, o‘zbekistonlik sportchilar qit’a va jahon reytinglarida o‘z o‘rinlarini mustahkamlab bormoqda.

Sportchilar, murabbiylar, hakamlar va sport menejerlarini tayyorlash, zamonaviy infratuzilmani

yaratish sohasida hamkorlikni yanada rivojlantirish va ekspert ko‘magi dasturlarini amalga oshirishga alohida e’tibor qaratildi.

O‘ZA

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati surati.

YEVROOSIYO YURAGIDAN YEVROPA MARKAZIGA:

HAMKORLIK ALOQALARI TA’LIM

UCHUN HAM SAMARALI

O‘zbekiston xalqaro munosabatlar maydonida faol va tashabbuskor siyosat yuritmoqda. Bugungi kunda davlatimiz tashqi siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri Yevropa davlatlari bilan strategik sheriklik aloqalarini mustahkamlashdir. Aynan shu nuqtayi nazardan, joriy yilning 19-22-may kunlari davlatimiz rahbarining Vengriya va Sloveniyaga tashrifi katta siyosiy ahamiyatga ega bo‘ldi.

► Davomi 2-betda

MAHALLIY SANOAT SALOHİYATINI OSHIRISHDA TEJAMKOR INNOVATSION YECHIMLARNI QO‘LLASH MUHIM

Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 26-may kuni mahalliy sanoatni rivojlantirishga qaratilgan ustuvor vazifalar yuzasidan videoselektor yig‘ilishi o‘tkazildi.

Bugun dunyodagi tebranishlar sharoitida har bir davlat, avvalo, eng ko‘p ish o‘rinlari yaratadigan sohalarni himoyalash choralarini ko‘ryapti. Mamlakatimizda to‘qimachilik, qurilish materiallari, mebelsozlik ana shunday sohalardir — ularda 1 millionga yaqin aholi ishlaymoqda.

O‘tgan 4 oyda yurtimizda sanoat 6,3 foizga o‘sib, 290 trillion so‘mga yetgan. Eksport 20 foizga oshib, 6 milliard 350 million dollarni tashkil etgan.

Yig‘ilishda mahalliy sanoatni qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish masalalari muhokama qilindi. Bu boradagi holat tuman va tarmoqlar kesimida tahlil qilinib, kamchiliklar ko‘rsatib o‘tiladi.

Masalan, to‘qimachilikda 7 mingga yaqin tadbirkor 500 dan ziyod turdagi mahsulotlarni chiqaryapti. Ayrimlari nufuzli brendlarga kiyim-kechak yetkazib beryapti.

Lekin ko‘pchilik sifatga ishlayotgani bilan buni ko‘rsatib bera olmayapti. Hozirgacha faqat 244 ta korxonamizda xalqaro sertifikat bor, xolos. Ularning ham katta qismi Toshkent va vodiylarida bo‘lib, boshqa hududlarda barmoq bilan sanarli.

O‘zbekiston Prezidentining farmoniga ko‘ra, nafaqat xalqaro sertifikat olish, balki korxonani bunga moslashtirish xarajati ham qoplab berilishi belgilangan. Bundan foydalanib, imkoniyatlarni tadbirkorlarga yetkazib, har bir viloyatda xalqaro sertifikatga ega korxonalarni ko‘paytirish vazifasi qo‘yildi.

Davlatimiz rahbari bu borada muhim tashabbusni ilgari surdi. O‘zbekistonda Milliy brendlarni qo‘llab-quvvatlash kompaniyasi tashkil qilinadi. Unga xorijdan brend-menejer, dizayner, marketologlar jalb etilib, milliy brendlarimizni jahon bozoriga olib chiqishga ko‘maklashiladi. Xalqaro sertifikatni bor, raqobatbardosh mahsulotlarga sifat belgisi berilib, dunyoda keng targ‘ib etiladi.

Yurtimizda milliy mahsulotlar bir joyda sotiladigan savdo markazlari yo‘q. Shu bois, endi hududlarda “Mall of Uzbekistan” majmualari barpo etiladi. Ulardagi savdo do‘konlari tadbirkorlarga minimal narxda ijaraga beriladi. Bunday markazlar xaridorlarga keng tanlov imkonini berib, xorijiy sayyohlarga ham qulay bo‘ladi.

Hozirgi murakkab sharoitda o‘zimizda bor xomashyoni chuqur qayta ishlab, qo‘shilgan qiymatni ko‘paytirish — eng asosiy masala. Shu maqsadda tayyor mahsulot ishlab chiqaruvchilar uchun faktoring tizimi joriy qilindi, bunga 100 million dollar ajratildi.

Shuning davomi sifatida endi to‘qimachilik korxonalari ip-kalavani faktoring asosida soddalashtirilgan tartibda sotib olishi mumkin bo‘ladi.

Mahalliy sanoatdagi yana bir salohiyatli yo‘nalish — mebelsozlik. Bu tarmoqda 7 ming 500 ta korxona ishlab turibdi. O‘tgan yilning o‘zida 920 ta yangi korxona ochildi. Sohada 6 trillion 700 milliard so‘mlik mahsulot tayyorlanib, 20 million dollarlik mebel eksport qilingan.

Tadbirkorlarimiz bundan ko‘piga ham qodir. Shu maqsadda uydagi hunarmandlikdan sanoatlashgan bosqichga o‘tish istagida yurganlar ancha.

Shu bois, endi 5 nafargacha ishchi olganlarga yakka tadbirkor sifatida mebel ishlab chiqarishga ruxsat beriladi. Ushbu faoliyatni boshlash, kengaytirish istagida yurgan yosh tadbirkorlarga 7 yilga 5 milliard so‘mgacha 18 foizli kredit ajratiladi.

Mebelchilikka ixtisoslashgan Sharof Rashidov, Yangi Namangan, Pastdarg‘om, O‘rta Chirchiq, Quva, Buvayda, Yunusobod va Uchtepa tumanlarida Xonqa tajribasi asosida mebelchilik markazlari tashkil etiladi.

Sohadagi kichik biznes vakillari chet eldan materiallar olib kelishda qiynalishi mumkin. Ularga bu borada ko‘maklashish, transport xarajatlarini yengillatib, xomashyoni arzon yetkazib berish maqsadida yog‘och va yog‘och materiallarini markazlashgan holda olib kelish tashkil etiladi. Bunda monopoliyaga yo‘l qo‘yilmaydi, aksincha, bozorda tanlov imkoniyati oshadi. Tadbirkorlar narxi va ehtiyojiga qarab, ushbu arzonlashtirilgan yog‘ochdan yoki boshqa ta’minotchidan sotib olishi yoki chet eldan o‘zi keltirishi mumkin bo‘ladi.

Shuningdek, 14 turdagi xomashyo, furnitura, aksessuar uchun 3 yil muddatga import boji 1 foiz etib belgilanadi.

Eksport faoliyatini rag‘batlantirish maqsadida mebelchilarga xalqaro sertifikat olish xarajatining hamda xorijdan jalb qilgan dizayner, marketolog, muhandis-texnologlar ish haqining yarmi qoplab beriladi. Xalqaro ko‘rgazmalarda ijara puli kompensatsiya qilinadigan maydon hozirgi 20 kvadratdan 40 kvadrat metrga oshiriladi.

Yurtimizda azaldan qadrlangan zargarlik bugun iqtisodiyotda qo‘shimcha darayver bo‘lishi mumkin. O‘tgan yili bu tarmoqda ishlab chiqarish 200 million dollardan oshgan, eksport 17 foizga o‘sib, 92 million dollarga yetgan.

Lekin bu yillga 100 tonnadan ziyod oltin qazib olinadigan O‘zbekistondagi

imkoniyatlarning o‘ndan biri ham emas. Shu bois, bu sohada ham qo‘shimcha yengilliklar belgilandi.

Endi zargarlar ham yakka tadbirkor sifatida tilla buyumlari savdosi bilan shug‘ullanishi mumkin bo‘ladi. Chet eldan mutaxassis olib kelish xarajatining 2,5 ming dollargacha qismi kamida 5 nafar shogird chiqarish sharti bilan qoplab beriladi.

Bu sohada ham sanoat usuliga o‘tish va milliy brendlarni qo‘llab-quvvatlash choralari ko‘riladi. Xususan, zargarlikda ishlatiladigan uskunalar va ularning butlovchi qismlari import bojidan ozod qilinadi. Navoiy va Olmaliq kon-metalurgiya kombinatlaridan oltinni bo‘lib to‘lash asosida sotib olish tartibi yana 3 yilga uzaytiriladi. Nufuzli brendlarni hamkorlikni yo‘lga qo‘yib, ularning dizayni va qolipini olib kelish xarajatining 30 ming dollargacha qismi qoplab beriladi.

Turkiya, Dubay va Misr tajribasi asosida Toshkent, Andijon va Xivada zargarlik markazlari ochildi. Endi bunday majmualar boshqa hududlarimizda ham bosqichma-bosqich tashkil etiladi.

Zargarlarni xomashyo bilan barqaror ta’minlash uchun bu yil birjaga chiqariladigan oltin hajmi 6 tonnadan 8 tonnaga oshiriladi. Barcha hududlarda oltin zaxirasi yaratiladi.

Bunga javoban tarmoqda “yashirin iqtisodiyot” ulushini qisqartirish, qonuniy faoliyatga rag‘bat choralarini qo‘llash bo‘yicha ko‘rsatmalar berildi.

Bunyodkorlik ko‘lami keng bo‘lgan yurtimizda qurilish materiallariga talab yuqori. Hozirgi kunda bu tarmoqda 10 mingga yaqin korxona faoliyat yuritmoqda. Endigi muhim vazifa sifat va xaridorlikni ta’minlash.

Shu bois, bunyodkorlik ishlarida mahalliy materiallardan kengroq foydalanish, developerlarga aylanma mablag‘ uchun kredit ajratish orqali buni qo‘llab-quvvatlash zarurligi qayd etildi.

“Shaffof qurilish” platformasida qurilish materiallari korxonalari reyestrini tashkil qilib, u orqali sifat reytingini yuritish vazifasi qo‘yildi.

Mahsulotlar tannarxini tushirishda energiya iqtisodi juda dolzarb. Shuning uchun energiya va resurs sarfi yuqori yo‘nalishlarni tahlil qilib, tejamkor innovatsion yechimlarni qo‘llash muhimligi qayd etildi.

Yig‘ilishda muhokama qilingan masalalar yuzasidan mutasaddilar va tadbirkorlarning takliflari eshitildi.

O‘ZA

haqi va xalqning umidi gavdalanadi. Shu bois, u qaror qabul qilganda qo‘rqmaydi, mas’uliyat yuki bilan yashaydi.

Bunday yetakchi “Menga ishonning”, deb da’vat qilmaydi. U shunday yashaydiki, xalqning o‘zi unga ishonishni xohlaydi. Bu ishonch qalbdan qalbgaga o‘tadigan, ruhiy bog‘liqlikka aylangan inoyatli aloqadorlikdir.

Uning har bir so‘zi xalq xotirasida saqlanadi, amallari esa millat ma’naviyatida muhrlanadi. Shu bois, u xalq ichida yashaydi — el unda o‘zini ko‘radi. Bu yetakchi shaxs el yuragida yozilayotgan tirik tarixdir.

O‘tmishda ne-ne hukmdorlar, podshohlar, sultonlar, amirlar, hatto sohibqironlar o‘tgan. Ammo ularning barchasiga ham shonli tarixni yaratish baxti nasib etmagan. Chunki tarixni yaratish bu faqat kuch yoki taxt emas, balki taqdir yuklatgan mas’uliyatni his etish, zamon tilimini anglash, har nafasda millatning orzu-umidini yelkada ko‘tarish fazilatidir.

Yetakchilik rasmiy maqom yoki martaba bilan emas, balki yurt bilan har kuni birga yashash, xalq dardi bilan nafas olish, fikrda ham, harakatda ham birinchi safda turish bilan belgilanadigan murakkab va ruhiy holatdir.

Shuning uchun ham bunday yetakchi qidirilmaydi, u xalq qalbidan kamol topadi, el ixlosi bilan yuksaladi va tarixning o‘zi e’tirof etadigan timsolga aylanadi.

Prezidentimiz davr ovozi tinglay oldi, millat bag‘ridan kelgan dardni yuragida his qildi. Xalq so‘zlaganda minbar talab etilmadi, u el yuragida eshitildi. Shuning uchun ham xalqimiz Shavkat Mirziyoyevni “Mening Prezidentim” deb qabul qildi.

2-qism. Yangi O‘zbekistonda yaratgan islohotlar daftari: 2016-2025-yillar tahlili

Tarixda inson qadri falsafiy tushuncha sifatida ko‘p bor tilga olingan. Ammo u shunday darajada huquqiy hujjatning yuragiga aylanib, millatning rasmiy istiqboli sifatida muhrlangan misollar kam.

► Davomi 3-betda

TARIX YARATAYOTGAN YETAKCHI

YOXUD YANGI O‘ZBEKISTON TAFAKKURI

“Yetakchilik bu — obro‘ uchun emas, mas’uliyat uchun kurashdir”.

(Sharl de Goll)



Yangi O‘zbekiston bunyodkori

Bu maqola yangrayotgan voqealiklar ortidagi ma’naviy o‘zgarishlarni ochib beradigan g‘oyaviy manifestdir. Xalq tafakkuriga ta’sir qiluvchi falsafiy satrlarda mamlakatimiz yetakchisi Shavkat Mirziyoyevning shaxsiy jasorati, tarixni qayta yaratishdagi siyosiy irodasi, xalq bilan ruhiy aloqasi va bugun shakllanib borayotgan Yangi O‘zbekiston tafakkuri uyg‘un tarzda ifodalanadi.

1-qism. Davr da’vosini o‘z yelkasida ko‘targan shaxs

Bugungi dunyodagi har bir voqealik bu — oddiy axborot emas, balki tarixning beqiyos lahzalarini yozib borayotgan voqeiy satrlardir. U xalqaro munosabatlardagi buriilish nuqtasi, millatlar taqdiriga ta’sir o‘tkazuvchi voqeikidir.

Yaqin o‘tmishda kuch, hukmronlik va qudrat armiyalar soni, boyliklar yoki hududlar bilan baholanardi. XXI asr esa bu eski o‘lchovlarni rad etib, tarixni qayta yozish emas, balki uning mohiyatini qayta anglash davrini boshlab berdi.

Hozirgi davr fikrlar, g‘oyalar va shaxslar to‘qnashuvi bilan belgilanadigan intellektual kurash maydoniga aylangan. G‘oliblik tanklar, so‘nmas shuhrat yoki

zo‘ravon kuchda bo‘lmay, balki ongni egallash, ma’naviyatni saqlash va tafakkurni yuksaltirishda namoyon bo‘lmoqda.

Shu sababdan ham bugun davlat va jamiyat barqarorligini faqat kuchli harbiy salohiyat orqali ta’minlab bo‘lmaydi. Uning mustahkam poyyedori millatning milliy o‘zligini anglashi, tarixiy xotiraga sadoqati, davlat va mamlakat yetakchisiga ishonchi va ma’naviy immuniteti qay darajada shakllanganiga tobora bog‘liq bo‘lib bormoqda. Jamiyatda qanday tafakkur shakllansa, uning kelajak xaritasi ham aynan shu tafakkur asosida yaratiladi.

Bugun dunyoda mezonlar almashmoqda: endi taqdirilar ustidan hukmni qurol emas, ma’no, adolat va ma’rifat chiqarayotir. Ana shunday sharoitda

xalq oldidagi mas’uliyati va dunyoqarashi bilan ajralib turuvchi yetakchi shaxs jamiyat ongini uyg‘otadigan, tafakkur yo‘nalishini belgilaydigan va kelajak manzarasini shakllantiradigan tarixiy obrazga aylanmoqda.

Bu yetakchi voqealar ortidan yurmaydi, balki ularga insonparvarlik va adolat tamoyillari hamda milliy manfaatlar prizmasi asosida yo‘nalish beradi. U tarixga guvoh bo‘lish bilan cheklanmaydi, uni yaratadi. Unga shon-sharafdan ko‘ra xalq xizmatida bo‘lish mas’uliyati muhimroq.

Yetakchi obrazini kuzatar ekansiz, xulosaga kelasizki, uning har bir tashabbusida millat tafakkuriga ta’sir qiluvchi g‘oya mujassam. Har bir qarorida shaxsiy emas, balki umummilliy manfaatlar, kelajak avlodning

1-iyun – Xalqaro bolalarni himoya qilish kuni

HAR BIR BOLANING HUQUQ VA QADR-QIMMATI QONUN HIMOYASIDA

O‘zbekistonda bolalar himoyasi, jumladan, ularning huquq va manfaatlarini ta’minlash, zo‘ravonlikdan himoya qilish va ijtimoiy himoyani kuchaytirishga qaratilgan muhim islohotlar kechmoqda. Birgina bolalarning majburiy mehnatga jalb etilishiga barham berilganining o‘ziyoq ayni yo‘nalishdagi islohotlar naqadar muhim va hayotiy zarurat ekanidan dalolat beradi, albatta.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgan ilk yillardayoq (1992-yil 9-dekabr) BMtning Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyasini ratifikatsiya qilgan. 2024-yil 14-noyabrda “Bolalarni zo‘ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to‘g‘risida”gi qonun esa bolalarga nisbatan zo‘ravonlikka qarshi kurashda ilk kompleks huquqiy hujjat sifatida qabul qilindi. Ushbu qonun 2025-yil 14-maydan kuchga

himoalinish huquqiga ega bo‘lishi qonun bilan kafolatlandi. Zo‘ravonlikdan jabr ko‘rgan bolalarning huquqlari alohida moddada mustahkamlangan: ular zo‘ravonlik to‘g‘risida tegishli idoralarga yoki sudga murojaat qilish, maxsus markazlarda yoki 24/7 rejimda ishlaydigan tekin “ishonch telefoni” orqali yuridik, psixologik, tibbiy va ijtimoiy yordam olish huquqiga ega.



kirib, bolalar xavfsizligini ta’minlashda muhim o‘zgarishlar yasadi. Bolalarga nisbatan zo‘ravonlikning barcha shakllari qonunan qat’iyan taqiqlandi va voyaga yetmagan o‘g‘il bolalarga himoya ordeni berilishi belgilandi. Qonun profilaktika choralaridan tortib jabrlanuvchi bolalarni reabilitatsiya qilishgacha bo‘lgan kompleks yondashuvni belgilaydi. Jumladan, har bir bola har qanday shart-sharoitda zo‘ravonlik, huquqlarini suiiste’mol qilishdan yoki ekspluatatsiyadan

Zo‘ravonlikka uchragan bola 24 soat ichida himoya ordenini olish imkoniyatiga ega bo‘ldi, bu order uni jabrlanuvchini tazyiqchi shaxsdan vaqtinchalik muhofazalashga xizmat qiladi. Qonun, shuningdek, bolani zo‘ravonlik holatidan kelib chiqib, zarurat tug‘ilganda ota-onasidan yoki vasiylikdan chiqarib olish tartibini ham nazarda tutadi. Zo‘ravonlik sodir etgan shaxslarning xulq-atvorini tuzatish maqsadida maxsus dasturlar joriy etildi va ularga nisbatan huquqiy cheklorlar belgilandi. Bu choralar



Malika QODIRXONOVA, Oliy Majlis Senati a’zosi

bolalar xavfsizligini ta’minlashda davlatning qat’iy pozitsiyasini ko‘rsatmoqda.

Ta’lim-tarbiya jarayonida bolalarni qanday shaklda bo‘lmasin jazolash, shafqatsiz yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala qo‘llash qat’iyan man etildi. Maktab va bog‘chalarda bolalar o‘rtasidagi zo‘ravonlikning oldini olishga qaratilgan dastur va mexanizmlar joriy etilishi lozimligi qonunda o‘z aksini topgan. Shu tariqa qonun bolalarni zo‘ravonlikdan himoya qilish uchun oila, jamiyat va ta’lim muassasalarida mutlaqo murosasiz muhit yaratishga qaratilgan.

Ushbu qonunning ijtimoiy ahamiyati juda baland. Chunki hujjat bilan bolalar huquq va erkinliklarining har qanday buzilish holatlariga nisbatan murosasiz munosabatda bo‘lish, zo‘ravonlikka qarshi keskin chora ko‘rish uchun mustahkam huquqiy zamin yaratildi. Qonun bolalarning jismoniy va ruhiy daxlsizligini ta’minlash orqali jamiyatda “bola manfaatlari ustuvor” tamoyilini amalda tasdiqlaydi. Shuningdek, u ota-onalar va keng jamoatchilikning huquqiy ongini oshirishga xizmat qiladi.

Davlat va jamoatchilik ishtirokini nazarda tutuvchi mexanizmlar

Qonunda ichki ishlar organlari bolalarni zo‘ravonlikdan himoya qilishda asosiy ijrochi organ sifatida belgilandi. Ular bolalarga nisbatan zo‘ravonlikning oldini olish, jabrlanuvchilarga yordam ko‘rsatish va xavfli vaziyatlarni bartaraf etish bilan shug‘ullanadi. Joriy yilning 4 oyi davomida 103 bola jinoyatdan jabrlangan bo‘lib, ularga nisbatan jinoyat sodir etgan shaxslar qonun oldida javobgarlikka tortildi. Bu raqamlar davlatning ushbu masalada faol va tezkor chora ko‘rayotganini namoyon etmoqda.

Hozirgi kunda 11 ta davlat organi va tashkilot bolalarga nisbatan zo‘ravonlikning oldini olish va unga qarshi kurashish faoliyatiga jalb etilib, har birining majburiyatlari belgilangan. Jumladan, Ichki ishlar vazirligi, Bosh prokuratura, Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Yoshlar ishlari agentligi, Ijtimoiy himoya milliy agentligi kabi tuzilmalar o‘z yo‘nalishida bolalarga zo‘ravonlikni aniqlash va chora ko‘rish bo‘yicha ishlaydi. Ayniqsa, Ijtimoiy himoya milliy agentligiga zo‘ravonlikdan jabrlangan yoki zo‘ravonlik xavfi ostidagi bolalarni aniqlash, hisobini yuritish va individual himoya choralarini qo‘llash kabi muhim vazifa yuklatilgan. Bu yangi institut bolalar ustidan nazorat emas, balki muhofaza va yordam tizimini tashkil etadi.

Shuningdek, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari va nodavlat notijorat tashkilotlar bolalarni zo‘ravonlikdan himoya qilish faoliyatida faol ishtirok etishi qonun bilan kafolatlangan. Ularning vazifasi mahallalar va muassasalarda xavf ostidagi bolalarni vaqtda aniqlab, tegishli idoralarga xabar berish, profilaktik tadbirlarda qatnashish va jabrlanuvchilarga ko‘maklashishdan iborat. Shu tarzda bolalarni himoya qilish umumdavlat ishi sifatida keng jamoatchilik nazorati va ishtirokini ta’minlash mexanizmi yaratildi.

2025-yil 8-may kuni Oliy Majlis Senati Kengashi “Bolalarga nisbatan zo‘ravonlikning oldini olish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlarni belgilash to‘g‘risida”gi qarorni qabul qildi. Qaror bilan bolalarga nisbatan zo‘ravonlikning oldini olishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar dasturi tasdiqlandi.

Ota-onalarning burchi va majburiyati ham alohida belgilab qo‘yilgan: ular bolaning hayoti, sog‘lig‘ini muhofaza qilishi, unga g‘amxo‘rlik qilib, zararli axborotdan asrash shart etib belgilandi hamda bolani tarbiyalashda jismoniy jazo qo‘llash taqiqlangan. Bu norma oilaning o‘zini bolaning huquqlarini himoya qilish tizimiga birlamchi bo‘g‘in sifatida jalb qiladi.

2025-yil 8-may kuni Oliy Majlis Senati Kengashi “Bolalarga nisbatan zo‘ravonlikning oldini olish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlarni belgilash to‘g‘risida”gi qarorni qabul qildi. Qaror bilan bolalarga nisbatan zo‘ravonlikning oldini olishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar dasturi tasdiqlandi. Dastur “O‘zbekiston — 2030” strategiyasining 2025-yil uchun amaliy chora-tadbirlar rejasida belgilangan maqsadga muvofiq ravishda ishlab chiqilgan, bolalarga zo‘ravonlikning oldini olishga qaratilgan qo‘shimcha vazifalarni o‘z ichiga oladi.

Senat qaroridan kelib chiqib, davlat idoralari zimmasiga aniq vazifalar yuklandi. Vazirlar Mahkamasiga dasturdagi vazifalarni belgilangan muddatlarda to‘liq bajarish va har chorak yakunlari bo‘yicha Senatga axborot kiritib borish topshirildi. Bunday yuqori darajadagi nazorat mexanizmlari qonun ijrosining samarali tashkil etilishiga xizmat qiladi.

Bolalarga nisbatan zo‘ravonlik holatlari

“Bolalarni zo‘ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to‘g‘risida”gi qonun qabul qilinib, shu oydan kuchga kirgani ayni muddaodir. Zero, ushbu qonunga kuchli zarurat mavjud ediki, so‘nggi yillarda bolalarga nisbatan zo‘ravonlik holatlari ko‘payib borayotgani tahlillarda ko‘rsatilgan. Rasmiy ma’lumotlarga ko‘ra, 2021-yilda voyaga yetmaganlarga nisbatan sodir etilib, tergov qilingan jinoyat ishlari soni 1831 tani tashkil etgan bo‘lsa, 2022-yilda 2194 taga yetgan, ya’ni bir yilda qariyb 20 foiz o‘sgan.

2023-yilda ham vaziyat og‘irligicha qoldi. Masalan, 2023-yilning faqat 9 oyida bolalarga nisbatan 1240 ta zo‘ravonlik holati qayd etilgan va ularning oqibatida 22 bola halok bo‘lgani achinarlidir.

O‘zbekiston bolalarni xorijdagi xavfli vaziyatlardan himoya qilish borasida ham muhim ishlarni qilmoqda. 2024-yilda chet davlatlarda ota-onalar qaramog‘isiz qolgan 84 bola, jumladan, Rossiyadan 73, Qozog‘istondan 6, Turkiyadan

3 va Xitoydan 2 bola vatanga qaytarildi. Shuningdek, bolani nazoratsiz qoldirgan 61 ota-onaga ma’muriy javobgarlikka tortildi. Bu choralar bolalar xavfsizligini ta’minlashda davlatning mas’uliyatli yondashuvidan dalolat beradi.

Bolalarga nisbatan zo‘ravonlik faqat jinoyatlar statistikasi bilangina emas, balki oila va jamiyatdagi turli holatlar bilan ham namoyon bo‘ladi. Oxirgi uch yilda 2072 ota-onasud tomonidan voyaga yetmagan farzandlariga nisbatan o‘z majburiyatlarini bajarmagani yoki ularga shafqatsiz muomala qilgani uchun ota-onalik huquqidan mahrum etilgan.

Bolalarni zo‘ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish — davlat siyosati darajasida

Nomi yuqorida qayd etilgan qonun qabul qilinib, to kuchga kirguncha bo‘lgan muddatda qonunchiligimizda bu sohada muayyan bo‘shliq mavjud edi. Ilgari bolalarga nisbatan zo‘ravonlik uchun javobgarlik turli kodeks va qonunlarda parchalangan holda keltirilgan bo‘lib, yagona tizim va profilaktika mexanizmi to‘liq shakllanmagandi. Masalan, Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksda ota-onalar bolaga nisbatan majburiyatlarini bajarmagani uchun jazo belgilangan bo‘lsa-da, lekin bolalarga nisbatan jabr yetkazishning ayrim ko‘rinishlariga huquqiy ta’rif va choralarni aniq emasdi. Mazkur qonunning tashabbusiga sabab bo‘lgan yana bir omil xalqaro majburiyatlaridir. O‘zbekiston BMtning Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyasini ratifikatsiya qilgan va unda bolani har qanday zo‘ravonlikdan himoyalash davlatning majburiyati etib belgilangan. Shu bois, yangi qonun milliy majburiyat — bolalarimizni zo‘ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish, jumladan, Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish yo‘lida ham zarur qadam bo‘ldi.

Boshqacha aytganda, qonun qabul qilinishi ortida bir-biri bilan chambarchas bog‘liq ikki omil turadi: birinchidan, ichki ijtimoiy ehtiyoj va bolalar xavfsizligi bilan bog‘liq vaziyat, ikkinchidan, tashqi — xalqaro standartlar va majburiyatlar.

Ijtimoiy talab va zarurat shu darajada yetilib kelgan ediki, bolalarga nisbatan zo‘ravonlikka qarshi kurashni huquqiy jihatdan yanada kuchaytirish islohotlarning ustuvor yo‘nalishi sifatida qabul qilindi. Shu orqali davlat o‘zining eng nozik va muhtoj qatlami — bolalarni himoya qilishga tayyor ekanini amaliy jihatdan ko‘rsatmoqda.

Qonun va uning ijrosiga oid chora-tadbirlar bolalar xavfsizligini ta’minlashda yangi sahifa ochdi. Ushbu hujjatning amaliyotga to‘liq tatbiq etilishi natijasida bolalarga nisbatan zo‘ravonlik holatlari keskin kamayishi, jabrlangan bolalarga tezkor va malakali yordam ko‘rsatilishi, eng muhimi — har bir bolaning huquq va qadr-qimmatini hurmat qilinishiga erishiladi. Qonun fuqarolarning huquqiy ongini yuksaltirish, jamiyatda zo‘ravonlikka nisbatan murosasiz madaniyatni shakllantirishga xizmat qiladi.

Bolalar — kelajagimiz egalari, ularning xavfsiz va baxtli o‘sishi uchun esa jamiyatning har bir a’zosi mas’ul. Qonun shu mas’uliyatni umummilliy darajada mustahkamlab, o‘zbek jamiyatining insonparvarlik qadriyatlarini yanada yuksaltirdi.

YEVROOSIYO YURAGIDAN YEVROPA MARKAZIGA: HAMKORLIK ALOQALARI TA’LIM UCHUN HAM SAMARALI



Fazliddin MO‘MINOV, oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi bo‘lim boshlig‘i

Nuqtayi nazar

Bu tashriflar nafaqat ikki tomonlama munosabatlarni chuqurlashtirishga xizmat qiladi, balki Yevroosiyo qit’asidagi yangi geosiyosiy va iqtisodiy realikni shakllantirishda mamlakatimizning rolini yanada oshiradi.

Vengriya: Turkiy dunyoning Yevropa darvozasi

19-may kuni Prezidentimiz Vengriya Bosh vaziri Viktor Orbanning taklifiga binoan Budapestga keldi. Bu tashrif tomonlar o‘rtasidagi o‘zaro ishonch va yuqori darajadagi muloqotning yangi davridan bir ifoda, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Hamkorlik shiddat bilan taraqqiy etayotgan bosqichlarga nigoh tashlarkanmiz, o‘tgan qisqa davrda, xususan, 2021-yilda Viktor Orbanning Toshkentga tashrifi hamda davlatimiz rahbarining 2022-yilda Vengriyaga tashrifi ikki davlat o‘rtasida mustahkam aloqalar rivojlanayotganidan dalolat beradi.

Vengriyaning Turkiy davlatlar tashkilotida kuzatuvchi maqomiga egaligi ham uning mamlakatimiz uchun nafaqat Yevropa Ittifoqidagi muhim hamkor, balki turkiy dunyo bilan aloqalarni mustahkamlashda ko‘prik vazifasini bajarishini ko‘rsatadi.

Yanada ahamiyatlisi, Turkiy davlatlar tashkilotining Vengriya poytaxtida bo‘lib o‘tgan norasmiy sammitida O‘zbekiston Prezidentining ishtiroki mintaqaviy hamkorlikning yangi formatlarini muhkama qilish uchun keng imkoniyatlar eshigini ochadi. Dunay sohillarida ko‘plab davlat rahbarlarining siyosiy muloqotlari boshlanishi esa Yevroosiyo siyosatining yangi dinamikasini belgilab berishi mumkin.

Mintaqaviy va global jarayonlar kechayotgan ayni davrda Turkiy davlatlar tashkiloti mamlakatimiz uchun ko‘p tomonlama hamkorlik mexanizmi sifatida ahamiyatli. Ushbu tashkilotga O‘zbekiston 2019-yilda rasman a’zo bo‘lganidan buyon qisqa fursatlarda tuzilma faoliyatini yanada rivojlantirishga qaratilgan 60 dan ortiq muhim tashabbuslarni ilgari surib, eng faol a’zolardan biriga aylana

oldi. Xususan, 2022-yilda O‘zbekistonning TDTda muvaffaqiyatli raislik qilishi hamda mazkur tashkilotga a’zo davlatlar rahbarlari ishtirokidagi sammitning samarali tashkil etilgani O‘zbekiston tashqi siyosiy faoliyati va ko‘p tomonlama diplomatiyasida yangi sahifa ochdi. 2023-yil 3-noyabr kuni Qozog‘istonda bo‘lib o‘tgan 10-sammitda Prezidentimiz tashkilotning eng oliy mukofoti — Turkiy dunyo oliy ordeni bilan taqdirlandi. Shuningdek, o‘tgan yili O‘zbekiston Prezidenti tashkilotning Shusha shahrida (Ozarbayjon) “Transport, o‘zaro bog‘liqlik va iqlim harakati orqali barqaror kelajakni bunyod etish” shiori ostida tashkil etilgan norasmiy sammitida ham ishtirok etdi.

Hozirgi kunda O‘zbekistonning TDTga a’zo va kuzatuvchi maqomiga ega davlatlar bilan savdo-iqtisodiy aloqalari dinamik ravishda o‘sb bormoqda. O‘tgan yilning o‘zida TDT mamlakatlari bilan jami tashqi savdo hajmi qariyb 6 milliard dollarni tashkil etdi. E’tiborlisi, TDT davlatlari, xususan, Qozog‘iston va Turkiya O‘zbekistonning tegishlacha uchinchi va to‘rtinchi asosiy tashqi savdo hamkori hisoblanadi. Qolaversa, O‘zbekiston TDTda ishtirok etuvchi qo‘shni davlatlar — Qozog‘iston, Qirg‘iziston va Turkmaniston, shuningdek, Kaspiy ortidagi Ozarbayjon bilan erkin savdo rejimi, Turkiya va Vengriya bilan eng ko‘p qulaylik rejimi shartlari asosida o‘zaro savdo-iqtisodiy munosabatlarni yo‘lga qo‘ygan. Bu manfaatdorlik transport-logistika, energetika kabi yo‘nalishlarda ham mamlakatimizning tashkilotdagi faolligini mustahkamlashga asos bo‘lmoqda.

Raqamli taraqqiyot sari innovatsion ko‘prik

Jamiyatning barcha jabhalarini bir-biriga bog‘lab turuvchi texnologik yangiliklar va ilmiy ishlarnmalar davrida xalqaro hamkorliksiz jahon bozorida raqobatbardoshlikka



erishish imkonsiz. Qo‘shma loyihalar har ikki tomonning umumiy manfaatlariga xizmat qiladi. 2022-2023-yillarda Vengriya, Turkmaniston, Eron, Isroil, Belarus, Rossiya va EAPI (Yevroosiyo ilmiy tadqiqotlarni qo‘llab-quvvatlash uyushmasi) bilan hamkorlik doirasida yuzdan ortiq xalqaro tadqiqot loyihasini moliyalashtirish rejalashtirilgan. Bu loyihalar qishloq xo‘jaligi va texnikadan tortib zamonaviy texnologiyalargacha bo‘lgan keng qamrovli sohalarni o‘z ichiga oladi.

So‘nggi yillarda Vengriya bilan ko‘plab sohalarda ikki tomonlama aloqalar jadal rivojlangani bois, erishilgan kelishuvlar doirasida, ilm-fan va innovatsiyalar tizimi ham e’tibor markazida bo‘layotgani quvonarli. Natijalar ham salmoqli. Vengriya Tashqi ishlar va savdo vazirligi tomonidan 2021-yilda e’lon qilingan “O‘zbekiston — Vengriya qo‘shma startap loyihalar” tanlovida 3,8 milliard so‘mlik 4 ta startap loyiha moliyalashtirishga tavsiya etildi. Ushbu loyihalar natijasida qishloq xo‘jaligida ma’lumotlar bazasini takomillashtirish bo‘yicha “Big Data” platformasi yaratildi. Shuningdek, xonadonlarda issiqlik quvvatini saqlash va energiya tejamkorlik darajasini oshirishga

qaratilgan xomashyo materiallar ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yildi. Turkiy davlatlar tashkilotining Samarqandda bo‘lib o‘tgan sammiti doirasida O‘zbekiston — Vengriya biznes forumi tashkil etilib, B2B va G2B formatida muzokaralar o‘tkazildi. Natijada yosh dasturchilarimizga Vengriyadagi “Codecool” kompaniyasi bilan hamkorlik taklifi bildirildi. Yosh olimlarimizni Vengriyaga stajirovkaga yuborish ham kengaydi. Vengriya bilan hamkorlikdagi yana bir muhim loyiha raqamli iqtisodiyot axborot xavfsizligini ta’minlashga xizmat qiladigan “SeCube” boshqaruv tizimi platformasidir. Bu dasturiy ta’minotni joriy etish O‘zbekiston iqtisodiyotini axborot hujumlaridan himoya qilishda katta ahamiyatga ega. Hozir mazkur platforma algoritmllari ishlab chiqilmoqda va loyiha doirasida bu yo‘nalishda malakali kadrlar tayyorlash ham ko‘zlangan. Keng qamrovda davom etayotgan qishloq xo‘jaligi va texnikadan tortib sun’iy intellekt, gen muhandisligi, IT, muqobil energetika, oziq-ovqat, qurilish, ekologiya kabi zamonaviy va istiqbolli sohalardagi hamkorlik samarasiga tayanib aytish mumkinki, Vengriya va O‘zbekistonning ilm-fan bobida erishayotgan yutuqlari ikki mamlakat iqtisodiyotining

diversifikatsion va innovatsion rivojlanishida muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Ta’lim va ilm-fan xalqaro formatda: kelajakka investitsiya

Ilm-fan bobidagi xalqaro hamkorlik har bir davlatning taraqqiyot yo‘lida muhim poydevor bo‘ladi. Ayniqsa, innovatsiya sohasidagi aloqalar millatlar kelajagini belgilab beradi. Mushohada etilsa, O‘zbekiston va Vengriya o‘rtasidagi bugungi hamkorlik aynan shunday strategik munosabatlarning yorqin namunasiga aylanmoqda. Buning yaqqol bir ifodasi — Vengriya hukumatining “Stipendium Hungaricum” ta’lim grantlari dasturi doirasidagi hamkorlik hozirgi kunda o‘z samarasini bermoqda.

Ayniqsa, 2025/2026-o‘quv yilida bakalavriat, magistratura va doktorantura bo‘yicha 170 ta ta’lim granti taqdim etilishi o‘zbekistonlik yoshlar uchun Vengriyaning nufuzli universitetlarida ta’lim olish imkoniyatini kengaytirmoqda. Bu nafaqat akademik bilimlarni oshirish, balki xalqaro tajriba almashish va yangi g‘oyalarni olib kirish uchun ham katta imkoniyatdir. O‘zbekiston Vengriyani Yevropaning yetakchi innovatsiya markazlaridan biri sifatida e’tirof etishi va bu sohadaqi aloqalarni mustahkamlashga alohida e’tibor qaratishi bejiz emas. Budapest deklaratsiyasi kabi muhim hujjatlarimiz imzolashini ta’lim, fan, madaniyat va innovatsiya sohalaridagi hamkorlikni yanada chuqurlashtirishga bo‘lgan qat’iy irodani tasdiqlaydi.

Prezidentimizning Vengriyaga tashrifi yo‘l ochgan yana bir quvonarli voqelik — kelgusi yilni O‘zbekiston va Vengriya madaniyati yili deb e’lon qilish taklifi xalqlarimiz o‘rtasidagi o‘zaro tushunish va hurmatni yanada oshirishi shubhasiz. Kuchli strategik tajriba bilan ko‘zlanayotgan bu kabi madaniy va ilmiy aloqalar kelgusida o‘zbek xalqining chuqur zakovati, ilmiy iqtidori, milliy genofondini dunyoga tarqatuvchi oydin yo‘l bo‘lg‘usi.

Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirlari darajasidagi muzokaralar, rektorlar forumlarining muntazam o‘tkazib kelinayotgani, ikki mamlakatda tan olinadigan diplomlar berish tizimi va Vengriya oliy ta’lim muassasalari filiallarini O‘zbekistonda tashkil etish imkoniyatidagi ko‘rib chiqilayotgani kabi jadidona islohiy harakatlarning barchasi yoshlarimiz taqdiri uchun chinakam yangi yo‘l yaratilayotganidan dalolat.



TARIX YARATAYOTGAN YETAKCHI

YOXUD YANGI O‘ZBEKISTON TAFAKKURI



Nuriddin NORMATOV,
yuridik fanlar doktori,
professor

Boshlanishi 1-betda

2023-yilda qabul qilingan yangi tahrirdagi Konstitutsiya nafaqat huquqiy hujjat, balki xalqning o‘z taqdiri haqidagi falsafiy bayonotidir. Uning birinchi satrlaridanoq “inson qadri” tushunchasi asosiy mezon sifatida belgilandi. Tarixiy voqealik shundaki, bu tushuncha avvalgi Konstitutsiyalarimizda bunday yuksak falsafiy-huquqiy maqomga ega bo‘lmagan.

Bugun esa u davlatning ma’naviy asosiga aylandi. Millat Konstitutsiyasida birinchi marta jamiyat faqat fuqarolar yig‘indisi emas, balki inson qalbidan, qadridan boshlanishini e’tirof etdi.

Bundan ham muhimrog‘i — bu jarayon yuqoridan “berilmadi”, xalqning o‘zi tomonidan shakllantirildi, muhokama qilindi, ma’qullandi. 220 mingdan ziyod taklif, har bir viloyat, har bir toifaning faol ishtirok etishi — uni butun millatning Konstitutsiyasiga aylantirdi.

So‘nggi 8-9 yilda O‘zbekistonda shunday keng qamrovli va mafkuraviy islohotlar amalga oshdiki, ularni shunchaki “o‘zgarishlar” deb atash tarixga, millat irodasi va yetakchi jasoratiga nisbatan behurmatlik bo‘ladi. Bu Shavkat Mirziyoyevning shaxsiy siyosiy irodasi, xalq ishonchi va umummilliy ruhni uyg‘otgan da’vati bilan amalga oshgan yangi taraqqiyot yo‘lidir. Ushbu davr davlat tuzilishini qayta yaratish, jamiyatni inson qadri asosida formatlash, xalqning ichidagi yuksak salohiyatni erkin rivojlantirish va eng muhimi, millat tafakkurini qaytadan uyg‘otish bosqichi bo‘ldi.

Bugungi o‘zgarishlar ko‘lami va ta’siri jihatidan ellik, balki yuz yillik tarixiy bosqichlarga teng keladi. Chunki ular zamonni kutmagan, balki zamonning o‘zini o‘zgartirishga da’vat etgan islohotlardir.

Aniq misollarni qayd etmaslikning iloji yo‘q, masalan:

Iqtisodiyotda:
— YIM hajmi 2016-yildagi 66 milliard dollardan 2024-yilda 114,96 milliard dollarga yetgan bo‘lsa, 2025-yil prognoziga ko‘ra ushbu ko‘rsatkich 127,2 milliard dollardan oshishi kutilmoqda;

— eksport hajmi 2,5 barobarga o‘sd, valyuta siyosati to‘liq erkinlashtirildi. Bu milliy mahsulotlarimizning tashqi bozorda raqobatbardoshligi ortganini ko‘rsatadi;

— 2025-yilning 1-yanvaridan 15-mayigacha bo‘lgan davrda O‘zbekistonda 1,1 milliarddan ortiq yangi ish o‘rinlari yaratildi. Bu ko‘rsatkich ortida millionlab insonlarning turmush darajasi, barqaror daromad manbalari va kelajakka bo‘lgan ishonchi mujassam.

Ta’lim sohasidagi keng ko‘lamli islohotlar:

Yangi O‘zbekistonda ta’lim endi faqat xizmat sohasi emas, balki milliy taraqqiyotning ustuvor strategik yo‘nalishiga aylandi. Prezident tomonidan belgilab berilgan **inson kapitalini rivojlantirish siyosati** asosida quyidagi ilk tarixiy o‘zgarishlar amalga oshirildi:

— 2016-yilda faqat 77 ta bo‘lgan OTM soni 2024/2025 o‘quv yilida 213 taga yetdi. Bundan 116 tasi davlat, 67 tasi nodavlat, 30 tasi xorijiy OTM;

— oliy ta’lim bilan 18-23 yoshdagi aholining qamrovi 47,7 foizga yetdi (2016-yilda 9 foiz edi).

Bu o‘zgarish faqat sonini ko‘paytirish emas, balki ta’lim siyosatini xalq manfaatlari bilan uyg‘unlashtirishni anglatadi.

— maktab o‘qituvchilarining maoshlari 2,5-3 barobarga oshirildi, ijtimoiy himoya va motivatsiya kuchaytirildi. Hududlarda 2 ming AQSH dollari miqdorida oylik oladigan o‘qituvchilar kontingenti paydo bo‘ldi va ularning safi tobora kengayib bormoqda;

— 2016-yilda maktabgacha ta’lim tashkilotlariga qamrov 27 foizni tashkil qilgan bo‘lsa, 2025-yilning mos davriga kelib 70 foizdan oshib ketdi.

Sud-huquq sohasida:
Yangi O‘zbekistonda sud-huquq tizimi faqat shaklan emas, balki mazmunan yangilandi. Bu islohotlar davlatning inson manfaatini eng oliy qadriyat sifatida belgilagan siyosatining amaliy ko‘rinishidir. So‘nggi 7 yilda 2,2 million fuqaroning huquq va manfaatlari sudlar orqali tiklandi. 2024-yilda 30 yildan so‘ng ilk bor Jinoyat kodeksi tubdan qayta ishlandi.

“Hech kim qonundan yuqori emas” tamoyili amalda to‘liq ta’minlanmoqda.

Aholini uy-joy bilan ta’minlash masalasida:

Bir paytlar uy-joy masalasi xususiy sektorning xohish-istagiga bog‘liq, davlat e’tiboridan yiroq, nazoratdan tashqaridagi jarayon bo‘lgan edi. Lekin so‘nggi to‘qqiz yil mobaynida bu masala milliy siyosat darajasiga ko‘tarildi.

2017-2024-yillar davomida 420 mingdan ortiq yangi xonadon barpo etildi, shundan kamida yarmidan ko‘prog‘i imtiyozli shartlarda aholiga taqdim etildi. Bu raqamlar ortida millionlab insonlarning baxtli turmushi, farzandlarining o‘z xonadonlarida ulg‘ayishi, kelajakka mustahkam ishonchi mujassam.

Yangi siyosiy boshqaruv modeli — maslahat, ishonch va natijadorlikka asoslangan fuqarolik davlatchliligi

Bugungi yetakchilik buyruq emas — maslahat, qonuniylar emas — adolat, strategiya emas — inson ruhi bilan olib borilayotgan amaliy siyosatdir.

Har bir farmon va qaror loyihasi xalq ichida pishiyapti.

Har bir yig‘ilishda yetakchi shaxsan xalq orasida.

Har bir tashabbusdan avval xalqning ovozi eshitilaypti.

Bu “men rahbarman” degan siyosat emas. Bu “men siz bilanman” degan munosabating isbotidir.

Shu sababli “davlat — xalq uchun” degan ibora bugun amalda “yetakchi — xalq bilan” shaklida namoyon bo‘lmoqda.

2017-yil sentyabrda so‘m bir kunda 1,5 barobarga qadrsizlandi. Bu tarixiy voqealinni o‘sha paytda ko‘pchilik tanqid qildi. Ammo bu qaror o‘ta og‘riqli, biroq zarur “qon ketishi”ni to‘xtatgan shifokorning qat’iyati ekanligini keyinchalik anglab yetishdi. O‘shandan so‘ng valyuta bozori erkinlashdi, eksport-import munosabatlari sog‘lomlashdi, xorijiy sarmoyadorlar uchun valyutada daromadni chiqarish kafolati qonuniylashtirildi, milliy valyutadagi hisob-kitoblar haqiqatga aylandi.

Bugun esa erkin valyuta siyosati iqtisodiy suverenitetning to‘laqonli kalitiga aylanib ulgurdi. Endi davlat tashqi dunyoga “bering” demaydi, “keling, sherik bo‘ling” deya murojaat qilmoqda. Bu nimani anglatadi, bu Prezidentimizning siyosiy irodasi bilan qabul qilingan tashabbusli islohotlar voqealigini oldindan prognoz qila olishini anglatadi.

Prezidentimizning davlat tashriflari va tashqi siyosat: inson qadri sarhadlar ortida ham qadrlanadi

Yangi O‘zbekistonning tashqi siyosiy falsafasini anglash uchun xaritaga nazar tashlash kifoya qilmaydi, uni qalb bilan his etish, inson qadriini anglash talab etiladi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning so‘nggi to‘qqiz yilda amalga oshirgan davlat tashriflari geosiyosiy manfaatlar doirasini kengaytirishdan ko‘ra inson qadriini yuksaltirish, xalqlar qalбини yaqinlashtirish va hamjihatlikni mustahkamlash g‘oyasiga asoslangan.

Bu tashriflar rasmiy protokol ifodasi bo‘lishdan ancha uzoq, ular qalbdan chiqqan niyatlar, samimiy so‘zlar va insonparvar yondashuvlarning amaldagi ifodasi bo‘ldi. Tashqi siyosatda esa tamoman yangi yondashuv shakllandi: endi uning boshlanishi geografik chegaralar bilan belgilanmaydi, balki inson qadriga berilayotgan yuksak e’tibordan boshlanadi.

Xo‘jand shartnomasi: qalblar o‘rtasidagi chegarasizlik

Yaqindagina Xo‘jand shahrida imzolangan O‘zbekiston, Tojikiston va Qirg‘iziston o‘rtasidagi uch tomonlama shartnoma tarixdagi oddiy siyosiy hujjat bo‘lmay, balki xalqlar qalbi o‘rtasidagi chegarasizlikni muhrlash poydevori bo‘ldi.

Bu voqeilikda eng katta muvaffaqiyat hujjatning huquqiy matnida ifodalanmaydi, uning ortida turgan odamlar, oilalar, qo‘shnilar, qarindoshlar, mahallalar tinchligi bilan belgilanadi. Millatlararo totuvlik, ijtimoiy hamjihatlik, har bir xonadondagi xotirjamlik yetakchi tashabbusi bilan boshlangan “dunyoda tinchlik siyosati”ning amaliy natijasidir.

Samarqand sammiti: ma’naviy diplomatiya maydoni

Yevropa Ittifoqi va Markaziy Osiyo davlatlari sammiti Samarqandda bo‘lib o‘tdi. Bu tadbirga dunyo siyosiy xaritasidagi navbatdagi yig‘ilish sifatida qarash noto‘g‘ri, bu uchrashuv davlatlararo ma’naviy diplomatiyaning hayotiy timsoliga aylandi. Nega aynan Samarqand?

Chunki Samarqand tarixda hamisha xalqlar o‘rtasida mulqotning markazi, sivilizatsiyalar ko‘prigi vazifasini bajargan. Bugun esa u tinchlik, barqarorlik va hamjihatlik g‘oyalarining ma’naviy poytaxtiga aylandi. Ushbu sammit dunyoga har haqiqatni yana bir bor isbotladi: Prezident Shavkat Mirziyoyevning tashabbuslari rasmiy an‘analardan uzoq — ular qalbdan kelib chiqqan, millat dardi va mintaqaning istiqbolini his etgan yurakning ifodasi. Bu tashabbuslar nafaqat yurtimiz, balki butun mintaqal kelajagi uchun zarur bo‘lgan ma’naviy va amaliy dastur sifatida shakllanmoqda.

Vengriya va Sloveniya tashrifi: diplomatiya emas, insonparvarlik kooperatsiyasi

Vengriya va Sloveniya davlatlariga o‘tgan hafta amalga oshirilgan rasmiy tashrif — inson qadriini asosga olgan tashqi siyosatning navbatdagi amaliy qadami bo‘ldi. Bu tashrif raqamlar va rasmiy muzokaralar bilan cheklanmagan holda, Yevropa bilan bag‘rikenglik, ishonch va umumiy qadriyatlar asosidagi hamkorlikni mustahkamlashga yo‘naltiladi.

Davlatlar o‘rtasida farmatsevtika, “yashil” energetika, sanoat kooperatsiyasi va logistika sohalarida erishilgan kelishuvlar iqtisodiy raqamlar ortidagi inson hayotini yaxshilashga qaratilgan strategik yondashuvlardir. Bu siyosatda asosiy e’tibor inson kapitaliga qaratildi, xalq manfaati davlat foydasidan ustun o‘ringa qo‘yildi.

Yangi O‘zbekiston tashqi siyosati endi sarhadlar, rasmiyat yoki protokollardan ko‘ra inson qadriini asos deb oldi. Prezident tashriflarining mazmunida geosiyosiy manfaatlardan ko‘ra inson hayoti, qadriyatlar va ma’naviy yaqinlik ustuvor o‘rin tutaypti.

Ichki siyosatda insonga ko‘rsatilayotgan e’tibor qanday yuksak bo‘lsa, tashqi siyosatda ham aynan shunday mehr va mas’uliyat bilan namoyon bo‘lmoqda.

“Har bir tashrif inson haqidagi tashvish, tinchlik haqidagi falsafa va kelajak haqidagi mas’uliyatni o‘zida mujassam etmoqda. Bu falsafa xalq bilan yelkama-yelka yuradigan va dunyo bilan qalb orqali mulqot qiladigan yetakchining siyosiy madaniyatidir.

Bu o‘zgarishlar zamirida faqatgina inson omili turganmidi?

Yo‘q, albatta. Agar bu faqat inson irodasi bilan amalga oshirilgan bo‘lsa, bu darajada keng qamrovli o‘zgarishlar imkonsiz edi. Bu o‘zini anglatayotgan millatning yuksalish lahzas, ilohiy taqdir tomonidan boshlangan islohotlar silsilasidir.

Afsuski, ko‘pchilik bu haqiqatni ko‘ra olmayapti, his etishga esa urinmayapti. Chunki anglash uchun faqat ko‘z yetarli emas, qalb ko‘zi ochiq bo‘lishi kerak.

Shuning uchun ham haqiqatga nisbatan loqaydlik jamiyatning eng og‘ir axloqiy dardiga aylanmoqda. Bu dard insonni jimgina yemiradi, qadriyatlarni so‘ndiradi, ma’naviy tayanchlarni siljitadi. Agar xalq o‘z hayotida yuz berayotgan mo‘jizalarni his qilmasa, bu haqda boshqalar so‘zlaydi. Lekin u so‘zlar xalqning ichida emas, boshqalarning manfaatlari uchun aytiladi. Haqiqatni xalqning o‘zi anglamasa, uni boshqa kimdir burmasdan tushuntiradi deb kim kafolat bera oladi?

3-qism. Xalq yetakchisi — ishonch, muhabbat va ardoq timsoli

Yetakchi va xalq o‘rtasidagi tabiiy ruhiy bog‘liqlik — tarixda juda kam yuz beradigan ehsosiy (“qalbni o‘zg‘atuvchi”) aloqa.

Yetakchi va xalq o‘rtasidagi munosabat ma’muriy vertikal tuzilmadan ko‘ra qalb tuyg‘usiga suyangan tabiiy ruhiy bog‘liqlikdir. Bu qalbdan qalbga tutashiruvchi ma’naviy ip, umumiy dard, maqsad va mas’uliyat hissi bilan bog‘langan uzviy aloqadorlikdir. Bu aloqaning asosi tashqi ko‘rinishda emas, inson qalbidagi samimiyyatda namoyon bo‘ladi. Va u faqat sevgi, muhabbat, mehr va ishonch tuyg‘ularida barpo etiladi.

Har qanday davlatning mafkuraviy barqarorligiga xizmat qiluvchi ma’naviy immunitet aynan shunday ishonch muhitida, yetakchi shaxs va el ruhi o‘rtasidagi samimiy aloqalarda shakllanadi.

Xalq o‘z yetakchisini ardoqlasa, demak, tan olgan. Asrasi, unga ishongan. Qadrlasa, qalbida o‘rin bergan. Ardoqlash, asrash, qadrlash bu xalq ongida yetakchi siymosi shakllanganining belgisidir. Bunday ruhiy bog‘liqlik esha har qanday ma’muriy farmondan ko‘ra kuchliroq, chunki u qalblar ustuvorligiga tayanadi.

El mehri tug‘ma ehtiromdan kelib chiqmaydi, u yetakchining jasorati, sadoqati va og‘ir mas’uliyatni yuragida his qilgan holda amalga oshirgan harakatlarning natijasidir. Xalq ardog‘i buyruq bilan emas, xizmat bilan orttiriladi.

Shuning uchun ham xalq ehtirom ko‘rsatayotgan yetakchi so‘zlari bilan emas, amallari bilan gapiradigan, tarix xotirasida emas, el qalbida muhrlangan shaxsga aylanadi.

Bugungi Yangi O‘zbekiston mafkurasining eng katta yutug‘i xalq davlat bilan mulqotdan ko‘ra Prezidentimiz bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri ruhiy aloqada bo‘layotganidadir.

Shu sababdan ham “mulqot” madaniyati bugungi o‘zbek milliy davlatchiligining asosiy qoidasiga aylanmoqda. Bu xalqning hokimiyat tizimi bilan rasmiy munosabatini anglatmaydi, balki xalq bilan yetakchi o‘rtasida shakllangan qalb aloqasini ifodalaydi. Bu ikki tushuncha o‘rtasidagi farq juda katta. Zero, inson faqat rasmiy institutlarning yuzidan ko‘ra yetakchining ko‘zini ko‘rishga intilmoqda. Qarorlar ortida yurakni, farmonlar ortida mas’uliyatni, so‘zlar ortida qalbni izlamqda.

Agar yetakchi xalq og‘rig‘ini his qilayotgan bo‘lsa, xalq uni faqat eshitmaydi, balki unga ishonadi. Va ishongan xalqning kelajakka ishtiyogi o‘zib boradi.

Bu ishonch ikki tomonlama. Yetakchi ham xalqqa ishonadi, uni tinglaydi, ovoziini eshitadi. Shuning uchun ham har bir farmonni qabul qilishdan avval keng jamoatchilik fikri inobatga olinadi, har bir islohotning asoslari el ichida “pishib”, qabul qilinadi.

El va yetakchi o‘rtasidagi tarixiy bog‘liqlik, manfaatli ishonch muhiti tasodifiy hodisa emas. Bu yillar davomida sabr, fidoyilik, yuksak mas’uliyat va ochlik orqali shakllangan ma’naviy kapitaldir.

Bunday munosabat siyosiy ko‘rinish emas, balki jonli falsafa hisoblanadi. U xalq qalbida yetakchini shunchaki hokimiyat vakili emas, balki millat timsoli sifatida qabul qilishga sabab bo‘ladi. Shunday yetakchining har bir so‘zi faqat farmon emas, xalq ongining ovozi, qalbining zarbi sifatida yangraydi.

Bunday shaxs millatning faqat kecha va buguni uchun emas, ertasi uchun ham mas’ulligini his qilgan yetakchi hisoblanadi. Va bu tuyg‘u xalq qalbida ardoqqa aylanadi.

4-qism. Yangi tafakkur va jamiyatni formatlash jarayoni

“Yangi O‘zbekiston tafakkuri” tushunchasi keyingi yillarda davlat siyosatining falsafiy asosiga aylanib ulgurdi, desak adashmagan bo‘lamiz. Bu tafakkur shunchaki yangi g‘oya emas, u butun boshli davlat va jamiyat munosabatlarini qayta ko‘rib chiqishni taqozo etdi. Eng muhim jihati shundaki, ushbu yondashuvda inson qadri markaziy nuqta sifatida belgilandi. Ta’kidlash joizki, bugungi islohotlar, qabul qilinayotgan qarorlar, davlat dasturlari, boringki, barchasi inson manfaati, uning orzu-umidlari, hayotda munosib o‘rin topishiga xizmat qilishga qaratilgani bilan baholanmoqda.

“Mazmunan bu holat “davlat xalq uchun” degan yangi formulani hayotga joriy etdi. Ilgari xalq davlatning xizmatchisi sifatida qaralsa, bugun davlat xalqning xizmatchisi ekan amalda namoyon bo‘lmoqda. Bu fikr qo‘lbola shior emas, balki Prezidentimizning shaxsiy e’tiqodi, ichki sadoqati va faoliyatining asosidir.

Bu tafakkur o‘z ifodasini amaliy tashabbuslarda ham topib bormoqda. Masalan, “Mahallabay” ishlash tizimi davlatning aholi

tashvishlarini bilishga, jonli mulqotga qaratilgan yondashuvini anglatadi. “Ijtimoiy himoya yagona reystri” kabi mexanizmlar xalqning og‘rig‘ini oldindan his qilish, inson qadriini himoya qilishning institutsional shakllaridir.

Bular shunchaki ijtimoiy chora-tadbirlar emas, **balki tafakkurni isloh qiluvchi mafkuraviy vositalardir.** Chunki xalqning davlatga ishonchi uning nafaqat daromad yoki yordam olish imkoniyati bilan, balki davlatning inson hayotiga qanchalik yurakdan yondashishi bilan belgilanmoqda.

Jamiyatni formatlash tushunchasi idoralarni qayta tashkil etish, vazifalarni qayta taqsimlashni anglatmaydi. Bu millat ongini, jamiyatning fikr yuritish madaniyatini yangilash jarayonini anglatadi. Avval “ish bitmas” deb insonlangan idoralarga borayotgan odam bugun dolzarb muammom yechim topadi deb murojaat qilmoqda. Bu jamiyatdagi mental o‘zgarishdir. Bu insonning o‘z davlatini anglashi, o‘z yetakchisini tan olishi va eng muhimi, o‘z qadriini his etishi demakdir.

“E’tirof etish joizki, yangi tafakkur o‘z mazmun-mohiyati bilan xalq ongida davlat timsoliga nisbatan ishonch va inoyat muhitini yaratmoqda. Bu ishonch har bir murojaatda, har bir maslahatda, har bir qabul qilingan qarorda his qilinmoqda. Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan boshlangan bu jarayon, o‘z navbatida, butun boshqaruv tizimi, jamoatchilik va oddiy fuqarolargacha yetib bormoqda.

Shu sababli ham ushbu o‘zgarishlarni inson his qilishi tabiiy. Chunki bu o‘zgarishlar uning hayotiga ta’sir qilmoqda: farzandi sifati ta’lim olmoqda, oilasi davlat dasturlari orqali uyli bo‘lmoqda, yoshlari o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun maydon topmoqda.

5-qism. Milliy mafkurani shakllantirishda tarix yaratayotgan yetakchi obrazi

Bugun Yangi O‘zbekiston g‘oyasi xalq ongida yangi orzu, yangi ishonch va yangi tafakkurni uyg‘otmoqda. Ammo har qanday g‘oya jamiyatda mustahkam ildiz otishi uchun u muayyan shaxsga bog‘langan bo‘lishi ham lozim. Masalan, Singapurda Li Kuan Yu, Fransiyada De Goll, Turkiyada Otaturk obrazlari milliy g‘oya, davlat mafkurasi va fuqarolik o‘zligining timsoliga aylanganidek, O‘zbekistonda ham **“Yangi O‘zbekiston orzusi” g‘oyasi** shaxs orqali jamiyat qalbiga yetkazilmoqda. Bu shaxs xalqning ishonchi, elning yelkasi, tarixning bunyodkori bo‘lgan Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevdir.

Bu obraz jamiyatda tabiiy ravishda shakllanmoqda. Xalq uni aql bilan baholamaydi, qalb bilan his etadi. Shu bois, ardoqlaydi. Yetakchi har bir farmon, tashrif va mulqot orqali g‘oyani so‘zlarisiz, o‘z shaxsiyati bilan yetkazadi. Yangi O‘zbekiston g‘oyasi endi qog‘oz yuzasida emas, insonlar ongida va hayot tarzida o‘z ifodasini topmoqda.

Boshqaruv bu vazifa. Yetakchilik esa tarix yaratishdir. Bu yo‘lda yetakchi xalqning orzu-umidini ohangga aylantiradi, millatga o‘zini tanitish, o‘z qadriini anglash imkonini beradi.

U g‘oya bilan yuradi, g‘oya bilan so‘zlaydi va g‘oya orqali el yuragiga yo‘l topadi. Mana shu fazilati uni davlatning ma’naviy poydevoriga aylantiradi. Bu haqiqat. Va bu haqiqat xalqning ichida e’tirof etilgan adolatning o‘zidir.

Dunyo tajribasi, shuningdek, o‘z tariximiz shunga dalolat bermqda: xalq ongida chuqur o‘zgarish ro‘y berishi uchun g‘oya kerak — g‘oyani harakatga aylantirish uchun esa shaxs. Bunday shaxslar tarixda kam tug‘iladi. Ular xalqni qurbonlikka chaqirmaydi — avval o‘zini fido qiladi.

AmirTemur elni kurashga da’vat qilmasdan avval o‘zi yurish boshlar, mas’uliyatni yelkasida ko‘tarib, birlashtiruvchi g‘oya atrofida millatni jipslashtirgan. Uning ortidan yurgan xalq adolatga ishondi, g‘oyaga ishondi.

Alisher Navoiy xalqqa faqat so‘z bilan emas, amal va qalb bilan xizmat qilgan. U qalam orqali millat ma’naviyatini uyg‘otdi, inson qadriini asosiy mezoniga aylantirdi, so‘z orqali xalq qalbiga yo‘l topdi.

Ana shunday shaxslar atrofida millat birlashadi. Chunki ular xalqdan bir narsa talab qilishdan avval xalq uchun yuragi bilan harakat qiladi. Kelajak g‘oyasi aynan shunday ruhiy yetakchilikda shakllanadi.

O‘zbekistondagi so‘nggi 8-9 yildagi o‘zgarishlarning tagida ham aynan shunday shaxs timsoli turibdi. Prezidentimizning shaxsiy faolligi, tashabbuslari, jonbozligi bilan

nafaqat davlat tuzilmalari, balki xalqning fikr yuritish madaniyati, ishonch muhiti va orzu qilish qobiliyati ham qayta shakllanmoqda. Prezident xalqqa **“men boraman, men hal qilaman”** demaydi, balki **“birga boraylik, birga hal qilaylik”** deydi.

Shu sababli ham bunday yetakchi obrazi bugungi jamiyat milliy mafkurasining markaziy timsoliga aylanmog‘i kerak. Bu obrazni ma’naviy hayotimizda saqlash, mafkuraviy-ilmiy platformalarda tahlil etish, ta’lim tizimida tadqiq etish va keng jamoatchilik tafakkuriga muhrlash davr talabi hisoblanadi.

Biz to‘g‘ri anglamog‘imiz lozimki, bu ehtiyoj emas, talabdir, davr talabi. Chunki **“Yangi O‘zbekiston bunyodkori”** maqomi bugun nafaqat tarixiy haqiqat, balki mafkuraviy zaruratga ham aylanib ulgurdi. Faqat ijro etiladigan siyosiy qarorlar emas, balki xalqning qalbidagi timsollargina millatni ko‘p yillik tinimsiz ma’naviy harakatda ushlab turishi mumkin.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, O‘zbekistonda yetakchi shaxsning tarixiy missiyasini mustahkamlaydigan institutsional asoslar zarur. Bu tarixiy xotirani tizimlashtirish, mafkurani shaxs orqali mujassamlashtirish, el-yurti bunyodkor shaxs orqali bir g‘oya atrofida birlashtirish deganidir.

Har bir buyuk g‘oyaga inson qiyofasi kerak. Har bir tafakkur inqilobiga so‘z emas, shaxs kerak. Yangi O‘zbekiston g‘oyasiga ham xalq ko‘z o‘ngida turgan, ogoh, sodiq va jasur yetakchi obrazi zarur. Va tarix shunday shaxsni taqdim etdi.

6-qism. Xulosa va umummilliy da’vat. Tarix yaratayotgan shaxsni anglash millatning yuksalish shartidir

Yangi O‘zbekiston tarixini har kuni bitta satrdan yozmaymiz. Ammo bu satrlar qog‘oz yuzasida qolmayapti, ular xalq ongida, millat taqdirida va inson qadriga muhrlanmoqda. Ulariga mazmun bag‘ishlayotgan mustahkam g‘oya uyg‘oq tafakkur va xalq bilan nafas oluvchi yetakchi obrazidir.

Ma’naviy barqarorlik nutqlar yoki ma’ruzalarga emas, xalq yuragida shakllangan ichki ishonch, fikriy immunitet va ma’naviy himoya tuyg‘usiga suyangan holda quriladi. Siyosiy barqarorlik institutsional mexanizmlar bilan birga xalq va yetakchi o‘rtasidagi ruhiy tenglik, ishonchli mulqot va ma’rifiy hamjihatlikka tayanadigan murakkab jarayondir.

Fikriy barqarorlik esa shiorlar yoki da’vatlar orqali emas, balki haqiqatni anglash, uni shaxsiy qadriyat sifatida qabul qilish va qalbda saqlash orqali shakllanadigan ma’naviy holatdir.

Tarixda buyuk shaxslar faqat jang maydonlarida g‘alaba qozonmagan. Ular tafakkur g‘alabasini ham yaratgan, xalqqa kelajakni yaratish uchun yo‘l bergan. Chunki tafakkur tarixni yaratadi. G‘oya tarixda qoladi. Yetakchi esa g‘oyani xalqqa yetkazuvchi timsolga aylanadi.

Shu sababli millat bir narsani anglashi kerak: bugun bir tarixda emas, tarix ichida yashamoqdamiz. Agar buni anglasak, bugungi harakatlarimiz, himoyalarmiz, tafakkurimiz, so‘zlarimiz ertangi avlod uchun qutlug‘ rivoyat, ma’rifatli saboq, milliy iftixor sifatida qolajak.

“Yangi O‘zbekiston yetakchisi o‘z shaxsi bilan himoya so‘rab chiqmadi. Balki xalqni himoya qildi. Prezident jonajon Vataniini dunyo xaritasida iftixor bilan ko‘tardi. Shuning uchun ham yetakchini ardoqlash masalasi Vatanni himoya qilish bilan uzviy bog‘liq ekanini anglash zamon fursatidir. Bu n



Abdushukur HAMZAYEV,
Oliy Majlis Qonunchilik
palatasi fraksiya rahbari

Insoniyatning kun sayin o‘shib borayotgan ehtiyojlari va sayyoramizda kamayib ketayotgan tabiiy imkoniyatlar o‘rtasidagi muvozanat barqarorligini ta‘minlash, tabiatni muhofaza qilish uchun har birimiz ekologik bilim, yuksak tafakkurga ega bo‘lishimiz suv va havodek zarur omilga aylanmoqda. Zotan, ekologik madaniyat atrof-muhit muhofazasi yo‘lidagi barcha sa’y-harakatlarni birlashtiruvchi o‘qildiz, asosiy platformadir.

Yurtimizda fuqarolarga ekologik barqaror hayot sharoitini yaratish davlatimiz siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylandi. Konstitutsiyamizda har kim qulay atrof-muhitga, uning holati to‘g‘risidagi ishonchli axborotga ega bo‘lish huquqi, davlat fuqarolarning ekologik huquqlarini ta‘minlash va atrof-muhitga zararli ta’sir ko‘rsatilishiga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida shaharsozlik faoliyati sohasida jamoatchilik nazoratini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratishi qat’iy belgilab qo‘yildi.

Xalqimizning ushbu konstitutsiyaviy haquqlarini ta‘minlash, avvalo, jamiyatimizda ekologik madaniyat nechog‘liq yuksalishi, ona tabiatga munosabatimiz qanday bo‘lishiga bevosita bog‘liq.

Shuning uchun xalqimiz, ayniqsa, yoshlarning bu boradagi ongi va madaniyatini shakllantirish, tabiat muhofazasi bilan bog‘liq ma’naviy mas’ulligini oshirish bugunning kun tartibida turgan eng dolzarb masalaga aylanmoqda.

Prezidentimizning yaqinda qabul qilingan “2030-yilgacha bo‘lgan davrda aholining ekologik madaniyatini yuksaltirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori oldimizda turgan ana shunday dolzarb masalalarga qaratilgani bilan alohida ahamiyatga ega. Ta’kidlash kerakki, aholining ekologik ong-saviyasi, bilim darajasi va madaniyatini yuksaltirib borish haqidagi taklif va mulohazalar O‘zbekiston Ekologik partiyasining dasturiy maqsadlari qatoridan o‘rin olgan va doimiy e’tiborda bo‘lib kelayotgan masaladir. Partiyamizning ko‘p ming sonli a’zolari bu boradagi dolzarb vazifalarni keng miqyosda amalga oshirishni imkon qadar targ‘ib qilmoqda.

Ammo ekologik barqarorlikni ta‘minlashda zarur ko‘lamli faoliyat uchun birgina jamoat tuzilmasining harakati yetarli bo‘lmagligi kunday ravshan. Shuni inobatga olgan holda, biz o‘z takliflarimizni berdik. Natijada O‘zbekiston Ekologik partiyasining fuqarolar ekologik bilimlarini oshirishga qaratilgan tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash maqsadida davlatimiz rahbarining yuqoridagi qarori qabul qilindi. Uning bugungi dolzarb va muhim bir davrda qabul qilinishi mamlakatimiz hayotidagi ekologik islohotlarni amalga oshirish, tabiiy muvozanat tiklanishida o‘ziga xos regeneratsiya bo‘lishi shubhasiz.

Qarorda nazarda tutilganidek, ekologiya bilan bog‘liq muammolarni hal qilish, avvalo, ertangi avlodning fuqarolik burchiga, aql-idrokiga, atrof-muhitga munosabatida amal qiladigan ongi va madaniy darajasiga bog‘liq bo‘lib qolmoqda. Mazkur muammolar tobora global ahamiyat kasb etib borayotgan davrda aholi, ayniqsa, yoshlarning ekologik madaniyatini yuksaltirish, o‘shib kelayotgan yosh avlod savodxonligini oshirish muhim ahamiyatga ega. Shu nuqtayi nazardan, ta’lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etish, ekologik ma’rifat



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

masalalariga alohida e’tibor qaratish bugungi kundagi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Bugun zamonaviy olam shunday davrni boshdan o‘tkazyaptiki, yoshlarda ekologik madaniyatni tarbiyalash ta’lim faoliyatining dolzarb yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Bolalarda ekologik bilimlar qanchalik kichik yoshdan shakllansa, bunday ta’lim shunchalik katta samara beradi.

Qarorda ayni shu masalaga e’tibor qaratilib, 2030-yilgacha maktabgacha ta’lim tashkilotlarining 3,3 million tarbiyalanuvchisida ekologik madaniyatni shakllantirish vazifasi belgilab qo‘yilgan. Eng qiyi tuzilmadan boshlab faoliyatni tizimli targ‘ib qilish, hatto ta’lim-tarbiya jarayoniga tatbiq etish kelajakda yuzaga kelish ehtimoli bo‘lgan global ekologik xatarlarning oldini olishga mustahkam zamin yaratadi.

Xalqimiz “Bola boshidan” hikmatini bejiz aytmagan. Biz ekologik madaniyatni farzandlarimizga bolaligidanoq tizimli o‘rgatib borsak, “yashil” iste’molga to‘la rioya qilib hayot kechiradigan, tabiat va tabiiy resurslar borasida puxta va aniq, muhimi, to‘g‘ri pozitsiyasiga ega avlodni voyaga yetkazish uchun dastlabki salmoqli qadami qo‘ygan

bo‘lamiz. Bunday qarashning keyinchalik umumta’lim maktablari, oliy ta’lim va undan keyingi jarayonlarda muntazam davom ettirilishi fuqarolarda ekologik madaniyat rivojlanib, hayotiy muhim qadriyatlar sirasidan joy olishiga sabab bo‘ladi. Boisi, bugun yoshlar qalbi va ongida ona tabiatga, tevarak-atrofga daxldorlik, mehr-shafqat, muhabbat, oqilona tejamkorlik tuyg‘ularini uyg‘otish va tabiatni himoyalashga qaratilgan innovatsiyalarni kuchaytirish har qachongidan ham dolzarb. Bugungi vaziyat bunday his-tuyg‘ular, qarashlarni yoshlar qalbi va ongiga singdirishning zamonaviy usul va vositalarini joriy etishni taqozo qilmoqda.

Yoshlarning ekologik madaniyatini shakllantirish va yuksaltirishda xalqimizning boy madaniy merosi hamda yuksak milliy qadriyatlaridan foydalanish muhim o‘rin tutadi. Har bir yosh avlod ongiga azaldan tarkib topgan ma’naviy merosni singdirish bugungi kundagi asosiy vazifalardan.

Konsepsiyaga asosan, aholining ekologik madaniyatini shakllantirish va yuksaltirish bilan bog‘liq xalqaro va ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘rgangan holda mamlakatimizda bu sohadagi huquqiy munosabatlarni to‘laonli tartibga solinadi. Oilada, maktabgacha

ta’lim tashkilotlarida, maktab va oliy o‘quv yurtlarida ekologik madaniyatni shakllantirish va yuksaltirishning huquqiy asoslarini takomillashtirishda davlat, jamoat, yoshlar tashkilotlari va ommaviy axborot vositalarining o‘zaro hamkorligini ta’minlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Qarorda bu borada oldimizda turgan dolzarb vazifalar aniq ko‘rsatib o‘tilgan. Ayniqsa, davlat va nodavlat tashkilotlar tomonidan bajarilishi zarur bo‘lgan ishlar belgilangan. Barcha mas’ullarning bir maqsad sari muntazam faoliyati yo‘lga qo‘yilishi bilan oldimizda



turgan ko‘plab muammolarga samarali yechim topish imkonini yuzaga keldi. Bu, o‘z navbatida, bemorni davolagandan ko‘ra xastalikning oldini olgan har tomonlama afzal ekani haqidagi qarashga aynan muvofiq.

Hisoblab qarasa, maktabgacha ta’lim tashkilotlarining 3,3 million tarbiyalanuvchisi, umumiy o‘rta ta’lim tizimi tashkilotlarining 4,2 million, o‘rta maxsus va kasbiy ta’lim tizimi tashkilotlarining 400 ming o‘quvchisi, oliy ta’lim tizimi tashkilotlarining 1,9 million talabasida ekologik ta’lim-tarbiya mustahkamlanishi hamda ekologik madaniyat yuksalishiga erishish oldimizda juda keng ko‘lamli vazifa turganidan

dalolat beradi. Qolaversa, davlat organlari, korxona va muassasalar xodimlaridan 90 foizining ekologik madaniyatini rivojlantirish ham qo‘shib hisoblansa, 2030-yilga borib xalqimizning umumiy ekologik madaniyati salmoqli darajada oshishiga erishish mumkin bo‘ladi. Bu bugun ko‘pchilikni qiyinab kelayotgan chiqindilar bilan bog‘liq noto‘g‘ri yondashuvlar, tabiiy resurslar, yovvoyi tabiat hamda atmosferaga to‘g‘ri va oqilona tasarrufning qat’iy shakllanishi, fuqarolarimiz hayotida ekologik qadriyatlarining mustahkam o‘rin tutishini anglatadi.

Qarordagi yana bir muhim jihat fuqarolarni zarur axborotlar bilan ta’minlash tizimi yo‘lga qo‘yilishi bilan bog‘liq. Haqiqatan, bu masala bugungacha aholida ko‘plab savollar tug‘ilishiga sabab bo‘layotgan edi. Endilikda Ekologiya, iqlim o‘zgarishi va atrof-muhitni muhofaza qilish vazirligi mazkur masalada doimiy ochiq ma’lumotlarni taqdim etib borishi nazarda tutilyapti. Bu aholi uchun juda manfaatli, zarur ma’lumotni bir zumda olish imkonini yaratadigan tizim bo‘ladi. Ekologik barqarorlikni ta’minlash yo‘nalishidagi ishlar shaffofligini ta’minlashga ham xizmat qiladi. Shuningdek, “Yashil makon” loyihasi bilan bog‘liq ayrim chalkashliklar, yovvoyi tabiat jonivorlariga noqonuniy munosabat, noruda materiallarga g‘arazli yondashuvlar yanada mustahkam tarzda tartibga solinadi.

Eng muhimi, ekologik huquqbuzarliklarning oldini olishda qonuniy javobgarlikka tortib jazo belgilash, jarimalarni kuchaytirish mexanizmdan tashqari har bir fuqaroda ongli ravishda tabiat va atrof-muhitga to‘g‘ri va qonuniy munosabat shakllanadi.

Hududlarda

SURXONDARYO: G‘OYALAR AMALIYOTGA JORIY ETILGANDA...

Surxondaryo viloyatida tadbirkorlar safi yildan yilga kengayib bormoqda. Prezidentimizning 2025-yil 19-martdagi “Kichik va o‘rta biznesning iqtisodiyotdagi o‘rnini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonida kichik va o‘rta biznes jadal rivojlanishi uchun qulay shart-sharoit yaratish, hududlarda biznes muhitini yanada yaxshilash, iqtisodiy o‘shishga turki beruvchi yangi biznes tashabbuslarni amalga oshirishga ko‘maklashish, raqobatbardosh mahsulotlar bilan tashqi bozorlarga chiqishni qo‘llab-quvvatlash kabi maqsadlar ko‘zda tutilgan. Shuningdek, 2025-yilda kichik va o‘rta biznesni rivojlantirishning asosiy maqsadli ko‘rsatkichlari ham belgilab berilgan.

Farmon ijrosi doirasida viloyatda kichik va o‘rta biznesning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 80 foizga, sanoatda 40, eksportda 60, aholi bandligini ta’minlashda 75 foizga yetkazish rejalashtirilaypti.

— Biznes subyektlarining yiriklashishiga ko‘maklashish orqali ularni chempion tadbirkorlarga aylantirish ustida ishlanyapti. Shu tariqa ichimlik va oqova suv, yo‘l, qurilish, kommunal xo‘jalik, migratsiya va ijtimoiy xizmatlarda kichik biznes ulushini kamida 2 barobar oshirish maqsad qilingan, — deydi Savdo-sanoat palatasi Surxondaryo viloyati hududiy boshqarmasi bo‘limi boshlig‘i Ahmad Murodov.

Joriy yil 1-iyuldan boshlab yuqori texnologik mahsulotlar ishlab chiqaruvchi tadbirkorlik

subyektlariga maydoni 10 ming kvadrat metrgacha bo‘lgan bo‘sh turgan davlat ko‘chmas mulk obyektlarini 5 yil muddatga tekin foydalanishga berish tizimi joriy etiladi.

Mana shunday sa’y-harakatlar doirasida viloyatning Sariosiyo tumanida ham “Loyiha ofisi”ni tashkil qilish ishlari boshlab yuborilgan. Unga ko‘ra, tumanda barpo etiladigan ko‘p qavatli binolarning 1-2-qavatli tadbirkorlik subyektlariga mulk huquqi asosida beriladi.

Mahalliy boshqaruv organlari va davlat tashkilotlarini ko‘chirish natijasida bo‘shaydigan ko‘chmas mulk obyektlari biznes loyihalarni amalga oshirish uchun onlayn auktsionlarga chiqariladi.

Surxondaryo viloyatining barcha tumanida zamonaviy yondashuvlar asosida innovatsion loyihalarni aniqlash va sohalarga tatbiq etishga jiddiy e’tibor qaratilyapti. Tijorat banklarining barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan

9,2 trillion so‘m kredit ajratilishi belgilangan. Shunda 5,5 trillion so‘mi kichik va o‘rta biznesni rivojlantirish uchun yo‘naltiriladi.

IT park rezidentlari soni 20 taga oshiriladi va ular ko‘rsatadigan xizmatlar qiymati 90 milliard so‘mga yetkaziladi. Kompyuter dasturlash xizmatlari qiymati 100 milliard so‘mdan oshiriladi.

2024-yilda vohada kichik va o‘rta biznes subyektlarining yalpi hududiy mahsulotdagi ulushi 77,8 foizni tashkil qilgan. Eksportdagi ulush 86,5 foiz, jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlaridagi ulush esa 64,8 foiz bo‘lgan. 2025-2030-yillarda kichik va o‘rta biznesni rivojlantirish strategiyasini amalga oshirish evaziga bu ko‘rsatkichni 90 foizga yetkazish belgilab olingan.

Joriy yilda raqamli infratuzilmani rivojlantirish doirasida 2500 kilometrli optik tolali aloqa tarmoqlari tortiladi. Shuningdek,



mobil aloqa operatorlarining 74 ta yangi stansiyasini o‘rnatish va modernizatsiya qilish rejalashtirilgan.

Viloyatda ayni paytda dasturchi, innovator, ixtirochi yigit-qizlar safi ham kengaymoqda. Ular ishlab chiqqan zamonaviy qurilma, loyihalar esa ishlab chiqarishga joriy qilinib, bozorlardan ham joy olaypti.

Odatda har qanday g‘oya amaliyotga tatbiq etilganidan keyingina foydali loyihaga aylanadi. Bu borada aniq g‘oyaga ega yoshlarning hammasi ham uni amalga oshirish qobiliyatiga ega bo‘lmaydi. Buning uchun vohalik yoshlarga ozroq turtki, ko‘mak zarur. Termiz yoshlar texnoparkida ayni shu jihatlarga katta e’tibor qaratiladi.

— Mamlakatimiz bo‘ylab tashkil etilayotgan “biznes inkubator”, zamonaviy

kash kurslari, IT markazlari, ishlab chiqarish texnoparklari shu sohaga qiziqqan, g‘oyasini amaliyotga tatbiq etish istagidagi ko‘plab yoshlarga yangi imkoniyatlar eshigini ochmoqda, — deydi Termiz yoshlar texnopark loyihalarni shakllantirish dasturchisi Elbek Asomiddinov.

2025-yilda Surxondaryoda yalpi hududiy mahsulot qiymatini 63,7 trillion so‘mga yetkazish rejalashtirilgan. Erkin iqtisodiy va kichik sanoat zonalarini zarur infratuzilma bilan ta’minlash ham ko‘zda tutilgan. Bu yil umumiy qiymati 67,3 milliard so‘mlik 49 ta loyiha ishga tushirilishi natijasida 267 ta ish o‘rni ochiladi.

Jumladan, 7 ta ijtimoiy soha obyekti, 3 ta irrigatsiya va 1 ta suv ta’minoti majmualarida qurilish-montaj ishlari qilingan. Yillar davomida muammo bo‘lib kelgan oqova suv ta’minotini yaxshilash bo‘yicha Germaniya taraqqiyot banki ishtirokida tuman markazida “Oqova suv tizimini rivojlantirish” loyihasi doirasida 13 million yevrodan ortiq mablag‘ evaziga 2024-2028-yillarda oqova suv inshootlari va quvurlari qurilishi rejalashtirilgan. 1 ta oqova suv tozalash inshooti hamda suv nasos stansiyalarini qurish belgilangan. Endi “Shodlik” mahallasidagi ichki ko‘chalar ham ta’mirlanyapti.

— Qiziriqda asrlar davomida suv bilan bog‘liq muammo bor edi. Keyingi 6-7 yilda katta o‘zgarishlarga qo‘l urildi. Buning izidan hududlar obod bo‘lib, tadbirkorlik ham rivojlanmoqda, — deydi “Shodlik” MFY raisi Shuhrat Turdiyev. — Mahallamiz tuman markazida joylashgan. Mahalla hududida “Yoshlar va turizm” ko‘chasi ham barpo etilgan. Ko‘cha bo‘ylab “Yoshlar daftari”da ro‘yxatda turgan ishsiz va tadbirkorlik bilan shug‘ullanish istagidagi yoshlar uchun 20 ta savdo nuqtasi qurilib, foydalanishga topshirildi.

Hududda manzillarni manzillarga bog‘lovchi yo‘l infratuzilmasini yaxshilash, xususan, avtomobil yo‘llarini xalqaro talabarlarga mos tarzda qurish, ta’mirlash ishlari izchilik bilan bajarilmoqda. Misol uchun, “Tashabbusli budget” va boshqa dasturlar orqali jami 109 kilometr avtomobil yo‘lida asfalt va shag‘al yotqizildi. Shundan 62 kilometri ichki xo‘jalik yo‘li bo‘lsa 47 kilometri davlat va mahalliy ahamiyatdagi avtomobil yo‘llaridir.

Fuqarolarni ish bilan band qilish maqsadida Oqjar mahallasidagi Yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonasi hududida 19 ta savdo shoxobchasi bunoyd etildi. Ikki qavatli 30 dan ortiq savdo markazi qad rostlamoqda. Tumandagi Istara mahallasida 800 bosh qoramolga mo‘ljallangan chorvachilik kompleksi qurilishi davom etmoqda. Bu yerda nasldor qoramollar parvarishi bilan birga yilqichilik va parrandachilik tarmog‘i ham tashkil qilinadi.

Surxondaryo bugun zamonaviy, o‘ziga xos infratuzilma shakllangan, sanoat va ishlab chiqarish rivojlanayotgan hududlardan biriga aylanib boryapti. Istiqbolli rejalalar esa uning kelgusida yanada yuksalishdan dalolat bermoqda.

**YUNUS BO‘RONOV,
Sarvar TO‘RAYEV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbirlari**



Hakim Yo‘ldoshev olgan suratlar.



Eskartma

Bugun yurtimizda maktab bitiruvchilari uchun imkoniyat ko‘p. Oliy ta‘lim muassasalarida o‘qish, startap loyihasini boshlash yoki ijodiy yo‘nalishda o‘zligini topish — bularning har biri o‘z hayotini qurishda yosh avlod uchun mustahkam o‘rin tutadi. Eng muhimi, tanlov shoshmashoshlik bilan emas, balki qiziqish va maqsadlar asosida amalga oshirilishi kerak. Boisi, tanlov nafaqat imkoniyat, balki mas‘uliyat hamdir. Bitiruvchi qaysi yo‘lni tanlasa, keyinchalik shu yo‘lda rivojlanadi, hayotidan qoniqishi ham shu tanlovga bog‘liq. Shu sababli maktab bitiruvchilarining bugungi ehtiyoj va qobiliyatiga mos uch asosiy yo‘nalish haqidagi ma‘lumotni kichik qo‘llanma sifatida taqdim etishga qaror qildik.

Birinchi tanlov:

teng imkoniyatlarga asoslangan
tizimdan foydalanish

Oliy ta‘lim sohasidagi islohotlar mamlakatimizda har qachongidan ham yuqori bosqichga chiqdi. Ilm izlagan yoshlar uchun universitetlar bilim va intilish maskaniga aylandi. Eng asosiysi, har bir abituriyent uchun shaffof, adolati va teng imkoniyatlarga asoslangan tizim yaratildi. Bu esa haqqoniylik va ishonchni yanada mustahkamladi.

— “Avval test — keyin tanlov” tizimi ayni zamonaviy va adolati yondashuv namunasidir, — deydi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Axborot xizmati rahbari Nazokat Abduqunduzova. — Abituriyent avval test sinovlarida ishtirok etadi. Natijalar ma‘lum bo‘lganidan so‘ng to‘plagan baliga qarab beshta OTMni tanlaydi. Shunga ko‘ra o‘qishga kiradi. Endi talaba qaysi universitetga tushishini avvaldan taxmin qilmaydi, balki naqadar bilimli ekanini test orqali isbotlab, so‘ng imkoniyatiga mos OTM va yo‘nalishni erkin tanlaydi. Bu tizim har bir yosh uchun haqiqatan teng start, halol raqobat va adolati qaror qilish imkonini beradi. Bunday yondashuv ta‘lim sohasidagi shaffoflik va ishonchni yanada mustahkamlamoqda.

Abituriyent oliy ta‘lim muassasasiga kirish uchun yetarli ball to‘plamasa ham sa‘y-harakati behuda ketmaydi. U texnikumlarga o‘qishga qabul qilinishi mumkin. Mazkur tizim yoshlarning ruhini tushirmay, kelajagi uchun zarur kasb-hunarli bo‘lishiga xizmat qiladi.

Bu ta‘lim muassasalarida yoshlar akademik nazariya bilan birga amaliy ko‘nikmalarni ham egallaydi. Teknikummi a‘lo baholar bilan bitirgan yoshlar oliy ta‘lim muassasalariga testsiz, subhat asosida qabul qilinadi. Bu esa bilimli, intizomli va mas‘uliyatli yigit-qizlar uchun yana bir imkoniyat.

2019/2020 o‘quv yilida davlat granti asosida 22 ming 321 abituriyent o‘qishga qilingan bo‘lsa, 2024/2025 o‘quv yilida bu ko‘rsatkich 44 ming 203 nafarga yetdi. Ya‘ni so‘nggi besh yilda davlat granti asosida ta‘lim olish imkoniyati qariyb ikki barobar ko‘paygan.

Xotin-qizlarning ta‘lim olish huquqini ta‘minlash — davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan. 2020-yildan boshlab Oila va xotin-qizlar davlat qo‘mitasi tavsiyanomasiga ega bo‘lgan qizlar uchun qo‘shimcha 4 foizli davlat granti ajratib kelinmoqda. 2020/2021-o‘quv yilida — 940, 2021/2022-yilda — 2000, 2022/2023-yildan boshlab har yili 2000 xotin-qiz uchun alohida davlat grantlari ajratilishi belgilandi. Shuningdek, 2022-yildan e‘tiboran magistraturaga qabul qilingan xotin-qizlarning shartnoma puli davlat tomonidan qoplab berilmoqda. Bundan tashqari, kamida 5 yillik ish stajiga ega, biroq oliy ma‘lumoti bo‘lmagan 500 xotin-qiz har yili alohida test sinovlari bilan to‘lov-kontrakt asosida o‘qishga qabul qilinadi.



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM
O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!



Ikkinchi tanlov:

xorijda o‘qish va xalqaro raqobatga qo‘shilish

— Bugungi yoshlar turli grant dasturlari orqali mahalliy va xalqaro miqyosda ta‘lim olish uchun keng imkoniyatga ega. Ushbu dasturlar bakalavriat, magistratura va doktorlik darajalarini qamrab oladi. Bunday grantlar hukumat tuzilmalari va xususiy tashkilotlar tomonidan berilishi mumkin, — deydi Garvard universiteti magistranti Jahongir Sa‘diyev. — Chet elda ta‘lim olish — minglab yoshlarning orzusi. Biroq xorijda o‘qish bilan birga vujudga keladigan moliyaviy va boshqa ko‘plab qiyinchiliklar bu yo‘lda to‘siq bo‘lishi mumkin. Muammoga yechim sifatida ko‘plab davlatlar tomonidan iqtidorli talabalarning xalqaro universitetlarda ta‘lim olishini qo‘llab-quvvatlash uchun grantlar ajratilgan.

Masalan, “Fulbright Scholarship” xalqaro talabalar dasturi bor. Ushbu dastur 155 mamlakatdan kelgan va AQSHda magistratura yoki PhD (doktorlik) darajasi olishni xohlovchi chet ellik talabalarning xarajatini to‘liq moliyalashtiradi. Grant o‘quv to‘lovi, darsliklar, aviachipta, yashash uchun stipendiya va tibbiy sug‘urtani o‘z ichiga oladi. Har yili taxminan 1800 talabaga grant ajratiladi. O‘zim ham Yevropaning “Chevening”, DAAD, “Hungaricum”, “Erasmus Mundus” kabi o‘nlab grantiga hujjat topshirib, hammasidan bir yilda qaytganim uchun nisbatan qiyin bo‘lsa-da, “Fulbright Scholarship”ga hujjat topshirib, oldingi tajribalarim natijasida grantni qo‘lga kiritganman.

FLEX dasturi esa AQSH davlat departamenti tomonidan moliyalashtiriladi. Dastur maktabning yuqori sinf va kollej/litsey o‘quvchilarining 1 yil Amerikada bepul yashash va ta‘lim olishini ta‘minlaydi. G‘olib nomzodlar ko‘ngilli sifatida ishtirok etayotgan AQSHdagi mezbon oilada dastur mobaynida bepul yashashi va mahalliy maktabda o‘qishi mumkin.

DAAD grant dasturi bakalavriat bosqichini tugatgan yoki uning so‘nggi bosqichida o‘qiyotgan talabalarga Germaniya universitetlarida magistratura va doktorantura bosqichida o‘qishni davom ettirish imkonini beradi.

Turkiya Burslari grant dasturi bakalavriat, magistratura va doktorantura bosqichida o‘qishni to‘liq moliyalashtiradi. Dasturga barcha davlat fuqarolari ariza topshirishi mumkin. Turk tilini avvaldan bilish talab etilmaydi.

MEXT Yaponiyaning nufuzli grant dasturidir. U O‘zbekiston va boshqa mamlakatlardan borgan talabalarga Yaponiyada bakalavriat, magistratura o‘qish va ilmiy tadqiqot ishlarini davom ettirish uchun moliyaviy yordam ko‘rsatadi.

FLEX dasturi esa AQSH davlat departamenti tomonidan moliyalashtiriladi. Dastur maktabning yuqori sinf va kollej/litsey o‘quvchilarining 1-yil Amerikada bepul yashash va ta‘lim olishini ta‘minlaydi. G‘olib nomzodlar ko‘ngilli sifatida ishtirok etayotgan AQSHdagi mezbon oilada dastur mobaynida bepul yashashi va mahalliy maktabda o‘qishi mumkin.

Uchinchi tanlov: raqamli davrning zamonaviy kasblarini o‘rganish

Raqamli iqtisodiyotning kengayishi, sun‘iy intellekt va internet texnologiyalarining tezkor rivoji natijasida dunyo bo‘ylab mehnat bozori tubdan o‘zgarib boryapti. O‘zbekiston ham bu jarayondan chetda emas. So‘nggi yillarda mamlakatimizda yoshlarning zamonaviy kasblarni o‘rganishi, raqamli sohalarida malaka oshirishi uchun turli platforma va tashabbuslar paydo bo‘layotir.

Sun‘iy intellekt, raqamli marketing, veb-dizayn, dasturlash, milliy kontent yaratish, videomontaj, grafik dizayn kabi sohalar bozorning eng talabgir yo‘nalishlariga aylandi.

Bu kasblarning asosiy afzalligi shundaki, onlayn kurslar, bootcamp dasturlari, mustaqil o‘qish vositalari orqali qisqa muddatda amaliy ko‘nikmaga ega bo‘lish mumkin.

Yurtimizda bu jabhani qo‘llab-quvvatlovchi tashabbuslar, qilingan ishlar, loyihalar nihoyatda ko‘p. IT kompaniyalar uchun istiqbolli boshlang‘ich loyihalar, tashqi iqtisodiy zona, jumladan, ilmiy va ta‘lim tashkilotlari bilan integratsiyalashgan holda ishga tushirish va bozorga chiqarishni ta‘minlashga mo‘ljallangan obyektlar, bino va inshootlar majmuasi bo‘lgan IT parki olaylik. Faol va iqtidorli insonlar buxalteriya hisobi,

yuridik, marketing va ta‘lim orqali o‘z g‘oyalari haqiqiy biznes loyihalariga aylantirish uchun katta imkoniyatga ega bo‘ladigan joy.

Bundan tashqari, sifatli milliy platforma va kontentlar mavjud. Masalan, Mohirdev milliy platforma bo‘lib, asosan, dasturlashga yo‘naltirilgan. Platformada Python, JavaScript, veb-dasturlash va sun‘iy intellekt asoslarini o‘rganmoqchi bo‘lgan yoshlar uchun ajoyib videodarslar va qiziqarli testlar mavjud. Shuningdek, Skillbox.uz, Edun.uz, Stepik.uz va boshqa ko‘plab platformalar zamonaviy kasblarni o‘zbek tilida o‘rganishga

mo‘ljallangan. Videoqo‘llanmalar, sertifikatlar va mutaxassislar ko‘magi orqali yoshlar ko‘nikmasini mustahkamlashi mumkin.

Hozirgi yoshlarda o‘z salohiyatini namoyon etish uchun sharoit yetarli. Ulardan talab qilinadigan — shijoat va tashabbuskorlik. Lekin buning uchun avtomobil, to‘y sabab pul ishlashni bosh maqsad qilib qo‘ymaslik kerak. Rejalarni temir-tersakdan ustun qo‘ying. Kasbga ko‘p pul keltiradigan manba sifatida bir taraflam qaramaslik, faqat boy bo‘lish haqida o‘ylamaslik lozim. Siz yoqtirmagan hech bir kasb zavqlanib ishlash topgan pulingizga yetmaydi. Sizga zavq bag‘ishlagan kasb esa sizni boy qilganini o‘zingiz ham bilmay qolasiz.

Azizbek YUSUPOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

VATAN — QALB QO‘RIDAGI BETAKROR TUYG‘U

Kamolot pillapoyasi

Bugun zamonaviylik deganda, aksariyatimiz faqat texnologiyalarni, uning taraqqiyotini tushunadigan bo‘lib qoldik. Ammo haqiqat shuki, inson ruhiyati, ma‘naviyati kuchli bo‘lmasa, hech bir yutuq uni to‘laqonli baxtli qila olmaydi. Shu bois, bizni doimiy xavotirga soladigan masalalardan biri ma‘naviy bo‘shliqdir. Ma‘naviy bo‘shliq jamiyatni ichkaridan yemiruvchi sokin jarayon. Bu bo‘shliqni to‘ldiradigan yagona kuch esa vatanga muhabbat, ajdodlar qadriyatiga sadoqat hamda o‘zlikni anglash istagidir. Ajdodlarimiz ham ta‘lim va tarbiyaning eng muhim omili sifatida ma‘naviyat va ma‘rifatga alohida ahamiyat bergan. Zero, bunday avlod hech qachon yot g‘oyalarga og‘ishib, o‘z vatanidan kechmaydi.



Sadoqat SIDDIQOVA,
Buxoro davlat texnika
universiteti rektori

Vatan shunchaki yer emas, yurak qo‘ridagi betakror tuyg‘u. Kimgir vatanni faqat chegara, bayroq yoki pasportdagi yozuv deb bilishi mumkin. Aslida, u ona tiling, volidangning duosi, mahallangdagi keksa otaxonning purma‘no subhati, maktabdagi ilk ustozing, bolalikda otang bilan sayr qilgan go‘shang, onang boshingga qo‘ndirgan milliy do‘ppi, u pishirgan taom hididir. Agar yosh avlod ongida bu qadriyatlar mustahkam o‘rnamagan bo‘lsa, inson nafaqat vatanini, balki o‘zligini ham yo‘qotadi.

Vatanga xizmat qilishning shakllari ko‘p. Ammo ular orasida ilm bilan xizmat qilish alohida ahamiyat kasb etadi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Zamonamizning bunday qahramonlari laboratoriyalarda, darsxonalarda, shifoxonalarda va boshqa ko‘plab dargohlarda ulug‘vor niyat bilan ishlayotgan insonlardir. Ular bilak kuchi bilan emas, bilim va fidoyilik quvvati ila vatanni yuksaltirishga hissa qo‘shmoqda.

Keling, bir daqiqa o‘yga tolib, vatanga munosabatimiz haqida o‘ylaylik. Bobolarimiz agar vatan yurakda bo‘lsa, hech qachon yo‘ldan adashmaysan, deb bejiz aytmagan. Chunki ayni tuyg‘u seni doim to‘g‘rilik sari yetaklaydi. Bu yo‘lda asosiy yo‘ldosh esa, shubhasiz, ma‘naviyatdir.



Ma‘naviyat insonning ichki dunyosi, yuragi, niyati, axloqi va ongiyu e‘tiqodidir. Bu insonni boshqa jonzorlardan farqlab turadigan asosiy belgi. Davlatimiz rahbari ta‘kidlaganidek, “Ma‘naviyat jamiyatdagi barcha siyosiy-ijtimoiy munosabatlarning mazmuni va sifatini belgilaydigan poydevordir. Bu poydevor qancha mustahkam

bo‘lsa, xalqimiz ham, davlatimiz ham shuncha kuchli bo‘ladi”.

Inson texnikani yaratishi mumkin, ilmda yuksalishi mumkin, lekin agar u ma‘rifat jihatidan ojiz bo‘lsa, bu yutuqlarning barchasi ma‘nosiz bo‘lib qoladi. Bunday tafakkur yaratgan ixtiro ham vayronkorlikka xizmat qiladi. Tarix bizga ko‘p saboqlar bergan. Bu saboqlarning

eng achinarlisi shundaki, ilm va tafakkur yuksak, ammo ma‘naviyatga suyanmagan bo‘lsa, kashfiyotlar ham insoniyatga nur emas, zulmat olib kelgan. Demak, yuksak aql va past ma‘naviyat xavfli uyg‘unlikdir.

Yorqin kelajakka yo‘l faqatgina komil tarbiya ko‘magida paydo bo‘ladi. Bugun yoshlarni nafaqat bilimli, balki to‘g‘rilikka intiluvchi, axloqli, fidoyi va mas‘uliyatli inson sifatida tarbiyalash — jamiyat oldidagi eng muhim vazifa. Ma‘naviyat bo‘lmasa, o‘qituvchi ustoz emas, oddiy mutaxassis bo‘lib qoladi, muhandis texnika yaratadi, lekin inson hayotini yengillashtirmaydi.

Shuningdek, ma‘naviy tarbiya zamon talabi hamdir. Ko‘plab bugungi yoshlarning ma‘naviyatsizligidan noliydi. Ammo savol: o‘zimiz ularga qanday munosabatda bo‘lyapmiz? Faqat “kitob o‘qi”, deb aytilish yetmaydi. Ular hammasini amalda ko‘rishi kerak — ustoz nasihatida, ota-ona tarbiyasida, televideniya, mahallada. Har bir so‘zimiz, har bir harakatimiz ibrat bo‘lishi lozim.

Bugungi dunyo ko‘plab sinovlarni boshdan kechirmoqda: urushlar, axloqiy inqirozlar, ruhiy tushkunlik, ijtimoiy adolatsizlik... Bularning aksariyatini faqat moddiy resurslar emas, balki ma‘naviy kuch yengadi. Yoshlarda vatanparvarlik, halollik, meh-r-shafqat, ajdodlarga hurmat, o‘zligiga sodiqlik singari sifatlatni uyg‘otsak, u jamiyatni hech qanday kuch egolmaydi.

Texnika eskiradi, zamon almashadi. Ammo inson qalbini yoritadigan kamolot nuri zaval topmaydi. U yo‘q joyda zulmat, adashish, befarqlik hukm suradi. Shuning uchun har birimiz, eng avvalo, o‘z qalbimizni tozalab, atrofmizdagi odamlarga ilm-ma‘rifat nurlarini ulashishimiz lozim. Shundaygina jamiyat sifatidagi ulug‘vor maqsadlarimiz ro‘yobi tezroq sodir bo‘ladi.

“El-yurt umidi” jamg‘armasi stipendiati bo‘lib, yurt taraqqiyotiga hissa qo‘shish uchun esa hech qanday kurslarga qatnashish kerak emas. Belgilangan nizom qoidalarini yaxshilab o‘rganing. Talablar bilan tanishib chiqib, hujjatlaringizni topshiring.

Xo‘sh, stipendiya tanloviga hujjat topshirishda nimalarga e‘tibor qaratish lozim? Birinchi navbatda, nomzodning belgilangan nizomdagi talablariga mosligi. Ikkinchidan, “El-yurt umidi” jamg‘armasi stipendiya tanloviga ishtirok etmoqchi bo‘lgan nomzod mustaqil ravishda xorijiy ta‘lim va ilmiy muassasalardan biriga o‘qishga qabul qilingan bo‘lishi kerak. Shu bilan birga, stipendiya tanloviga nomzod tomonidan tanlangan mutaxassislikning ustuvorligiga alohida e‘tibor beriladi.

Nomzodlar ikki bosqichda saralanadi: birinchi bosqich hujjatlarini nizomda belgilangan talablar asosida qabul qilish, tahlil etish va ro‘yxatga olishni ko‘zda tutadi. Ushbu bosqich jamg‘arma xodimlari tomonidan o‘tkazilib, uning yakunlari bo‘yicha hujjatlarini jamg‘arma talablariga mos ravishda taqdim etgan, saralash tanlovining ikkinchi bosqichiga o‘tgan ishtirokchilarning yig‘ma ro‘yxati tuziladi. Stipendiya tanlovining ikkinchi bosqichida davlat tilida subhat o‘tkaziladi.

Xorijda ta‘lim olishni tashkil qilish TNE (The Times Higher Education World University Rankings), QS (QS World University Rankings), The U. S. News and World Report (Best Global University Rankings) va ARWU (Academic Ranking of World Universities) kabi xalqaro miqyosda e‘tirof etilgan akademik reytinglarning eng ilg‘or 300 ta (yoki tanlab olingan fan bo‘yicha yetakchi 100 ta) ta‘lim va ilmiy muassasalari ro‘yxatidan joy olgan xorijiy ta‘lim, ilmiy hamda boshqa muassasalar doirasida amalga oshiriladi.



O'ramizdagi odamlar

Qahramonim aytgan manzilni qiynalmay topdim. Uning uyi Urganch shahridagi “Ipak motash” fabrikasiga yaqin hududda joylashgan ekan. Bu joyni mahalliy aholi “Shyolkomotal” deydi.

Manzilga yetgach, bo‘ljak suhbat uchun tayyorlangan savollarimni yana bir qur xayolimda pishitib olmoqchi bo‘ldim. Ammo diqqatimni boshqa narsa tortdi. Bir-biridan chiroyli, ko‘p qavatli zamonaviy imoratlarini, uylarga tutash bolajonlar o‘yingohlari, qulay o‘rindiqlar, dam olish maskanlarini ko‘rib, rosti, havasim keldi. Beixtiyor mana shu o‘zgarishlar haqida o‘ylab ketdim. Yodimda, 10-15 yillar muqaddam bu yerlar ko‘rimsiz maydon edi. Hozir o‘sha taqir yer o‘rnida muhtasham uylar barpo qilingan. Uylar oldidagi zumrad tusli manzaraga shohid bo‘lib-ku, rosmana kayfiyatim ko‘tarildi. Yashillikka ne yetsin! Kamina ona tabiat shaydosiman. Yangi uylar oldidagi gullar, daraxtlarni ko‘rgach, kayfiyatim chog‘ bo‘lgani sababi shunda.



bildirgan ishonchni oqlayman!

Yondaftarchamni yopgan ko‘yi Maftunaga tikildim. Uchrashuv ta’siridami, har qalay uning ko‘zlari yonib turardi. O‘ylab qarasam, qahramonim bilan o‘xshash jihatlarimiz borligini sezdim. U ham uyida 10 ga yaqin mushuk bolasini parvarishlar ekan. Qizig‘i, ular orasida nogironlari ham bor. Qizimizning sabriga, yuragiga qoyil qolmay iloj yo‘q. U nozik qalbi bilan ana shu jonivorlarga ham mehr ulashyapti. Tabiatni yaxshi ko‘radigan odamlardan yomonlik chiqmaydi. Uning bu ishini kuzatib, beixtiyor yurtimizdagi o‘zgarishlar yodimga tushdi. Keyingi yillarda kitobxonlik targ‘iboti yuksak cho‘qqiga chiqdi. Kechagina “O‘qib dunyo olib berarimding”, degan odamlar bugun Maftuna kabi o‘g‘il-qizlarga havas bilan qarayapti. Bolalari, nabiralarga kitob o‘qishni uqtiryapti. Tabiatni asrash bilan bog‘liq jihatga ham jiddiy qaray boshladik. Mana, daraxtlarni kesishni jamoatchilik nazorati bilan tartibga solishga erishdik. Hozir ko‘chada qolgan jonivorlarga mehr berayotgan faollar ancha ko‘paydi. Bunday xayrli ishlar jamlanib, yangi O‘zbekiston ruhi yuksalib borayotganini ko‘rsatmoqda. Chunki mamlakatimizda keyingi yillarda o‘qib-o‘rganishga keng yo‘l ochildi. Yo‘q, shunchaki yo‘l ochildi emas, amaliy ishlar bajarildi.

Yoshlarning ta’lim olish imkoniyatini Maftunaning hayoti misolida ko‘rishimiz mumkin. Qahramonimiz kitobxonlar orasida tengsiz ekanini isbotlaguncha ham davlatimiz mehrini his etgan edi.

— Ota og‘ushini ko‘rmagan menday qiz bu holatda qanday qilib yig‘lamsadan tura oladi? O‘sha kungi hayajonli daqiqalarni, Prezidentimizning mehrli qo‘llari taftini, menga qaratgan samimiy gaplarini umrim oxirigacha unutolmasam kerak! Yana bir quvonchli xabar — Prezidentimiz 9-may — Xotira va qadrlash kuni munosabati bilan G‘alaba bog‘ida jamoatchilik vakillari bilan uchrashuvda bildirgan fikrlarida yana men haqimda so‘zlab, boshqalarga ibrat qilib ko‘rsatibdi. Bu ulkan ishonch va katta mas’uliyat yukladi. Hali oldinda bundan ham katta marralar kutib turganini his qildim. Yana o‘zimga so‘z berdim, Prezidentimiz



Nihoyat Maftuna Ochilovani ko‘rib, darhol tanidim. Hayotda ancha oddiy ekan. Qiynalib katta bo‘lgani shundoqqina yuz-ko‘zida, harakatlarida zohir. Ha, qiyinchiliklar insonni po‘latday toblaydi. Biroq shunisi ham borki, hayot o‘z sinovlaridan muvaffaqiyatli o‘tganlarni aslo mukofotlamasdan qo‘ymaydi. Ular qalbiga g‘ayrat-shijoat, ishonch tuyg‘ularini muqim joylaydi.

Maftuna o‘ziga ishongan qiz ekanini uning o‘ktam qarashlari tasdiqlab turganday edi. Yana uning o‘ziga ortiqcha oro berishga qiziqmasligi, hashamdan yiroqligini ham angladim. O‘datda bilimga tashna, kitob dunyosida yashaydigan aksar insonlarning tabiati mana shunday sirli bo‘ladi.

Xonada uchovlon — Maftuna, onasi Dildora va men gurungni boshladik. Do‘stlarim — yondaftarcha va ruchka kaminaning xizmatiga shay. Ba’zi gaplarni qayd qilmasam bo‘lmaydi, hamma ma’lumotni xotirada saqlab qolish qiyin. U istalgan paytda pand berishi mumkin.

Aytishicha, Maftunaning bolaligi oson kechmagan. Oila boquvchisini yo‘qotgan, shu bois, bor tashvish kasalmand ona gardanida qolib ketgan. Maftuna oilada to‘ng‘ich farzand bo‘lgan. Shundanmi, u mas’uliyat hissini juda erta anglagan. Ro‘zg‘or — g‘or, uni to‘ldirish ilinjida xasta onaizor uzzukun mehnat qilgan. Biroq yolg‘iz ayolning topgani nimaga ham yetardi, bir yodga yeyman-ichaman deb turgan 3 juff qorako‘z bo‘lsa. Oho!rli kiyim kiyish ularning xayoliga ham kelmas, to‘yib ovqatlanishning o‘zi katta gap edi.

Ro‘zg‘or yoim, erkakmi yoki ayol, baribir bir kishiga doim og‘irlik qiladi. Buni juda tez ilg‘agan Maftuna yoshligidan oq onasiga yordam berishni boshladi. Ona-bola ishing ko‘lami, og‘ir-yengiliga qarab o‘rtimas, kimning uyida nima yumush topilsa, bas, borib qilib ketaverishar, nima qilib bo‘lmasin qorinni to‘qlash, ustni butlash kerak edi. Albatta, halol yo‘l bilan!

Ana shunday sinovli kunlarda ham Maftuna ruhan sinmadi. To‘g‘ri, uning o‘ksigan, dildan o‘tgan anduhli o‘ylarni bir o‘zi va Xudo bilgan kunlar bo‘ldi. Lekin tom ma’noda o‘zini oldirib qo‘ymadi. Aksincha, o‘ziga o‘zi so‘z berdi: “Katta qiz bo‘lsam, ishlab ko‘p pul topaman va albatta, onajonimga uy sovg‘a qilaman!”

O‘shanda u endigina 10-12 yoshlar atrofidagi qizaloq edi. Erta y kech o‘ziga bergan va’dasi haqida o‘ylar, masalaga yechim izlardi. Bu orada u sadoqatli “do‘stlar” ortirdi. “Xazinalar oroli” — kitob dunyosiga qadam qo‘ydi. Kitoblar uni zeriktirmas, ba’zi dugonalari kabi uning shundoq‘am ozorlangan diliga shikast yetkazmas, aksincha, u bilan juda muayyim munosabatda bo‘lardi. Shu-shu kitob uning



uchun hamma narsaga aylandi. Endi u bo‘sh vaqt topdi deguncha, bir-biridan qiziq badiiy kitoblarni topib o‘qir, mutolaadan hech bezmas, onaizor esa qizining bu qadar kitobxon bo‘lib qolganidan goh xavotirga tushar, gohida esa zavqlanardi. Bu vaqtga kelib u ancha-muncha kitob o‘qib qo‘ygan, shular ta’siridami, endilikda butkul o‘zgartgan, bo‘sh-bayov qizdan qat’iyatli, maqsadli o‘smirga aylanib yugurandi.

Asosiysi, u kalavaning uchini topgan, qay yo‘l bilan onasiga uy sovg‘a qilish mumkinligini ham tushunib yetgan edi. “Bo‘ldi, tamom, yaxshi o‘qib kelajakda, albatta, olim bo‘laman”.

Maqsadli katta oldi. Avvaliga maktabda, keyinchalik oliygohta namunali talabalardan biri bo‘lib o‘qidi. Ko‘pincha maktabda o‘zi sevgan darslik — geografiya fani bo‘yicha olimpiadalarda qatnashib, yuqori natijalarga erishganida yuxud ota-onalar yig‘ilishiga tashrif buyurgan volidasi qo‘liga maktab ma’muriyati “Faxriy yorliq”larni katta ehtrom bilan topqazganida o‘ziga bergan va’dasi yodiga tushar, shunday kezlarda bir so‘zni sassiz, sadosiz takrorlardi: “Bular hali boshlanishi...”

2017-yili Prezidentimiz tashabbusi bilan kitobxonlik bo‘yicha muhim qaror imzolandi. Aynan shu farmon Maftunaga o‘xshagan minglab yoshlar ko‘nglida umid chiroqlarini

yoqdi. Shu tariqa u “Yosh kitobxon” ko‘rik-tanloviga ishtirok etishga va albatta, g‘olib bo‘lishga qaror qildi.

O‘shanda u endigina 18 ga kirgan edi. G‘oliblikni esa anglaganingizdek, 23 yoshning bahorida 5 yillik mehnati evaziga qo‘lga kiritdi. Nihoyat o‘sha kun yetib keldi. Uning hayotini o‘zgartirgan, qalbidak kelajakka umid va ishonch uyg‘otgan xayrli kun...

Joriy yilning 24-31-mart kunlari Andijon viloyatida 20-30 yosh orasidagi kitobsevarlar o‘rtasida “Yosh kitobxon” ko‘rik-tanlovining Respublika bosqichida qatnashgan Maftuna Ochilova faxrlari birinchi o‘rinni qo‘lga kiritdi. Unga Prezident sovg‘asi — zamonaviy elektromobil berildi. Maftuna katta yutuqni qo‘lga kiritdim deb o‘yladi. Ammo bu ham hali boshlanishi ekan. Hayot, yangi O‘zbekistondagi o‘zgarishlar unga yana bir sovg‘ani hozirlab turgandi. Shu tariqa oradan 2 oy o‘tar-o‘tmas, hayotida bundan-da quvonchli voqea yuz beradi. May oyining ilk kunlarida Xorazmga tashrif buyurgan mamlakat rahbari vohaning faol yoshlari bilan uchrashdi. “Arda Xiva” turizm majmuasida bo‘lib o‘tgan shukuhli uchrashuvda ishtirok etgan yoshlar orasida ne baxtki, Maftuna Ochilova ham bor edi. Keling, yaxshisi, uning dil so‘zlariga quloq tutamiz:

YOSH OLIM OYNADAN

Innovatsiya

Bozor iqtisodiyoti sharoitida elektr energiyasiga ehtiyoj ortib, xarajat ham ko‘paymoqda. Ammo bu muammo emas, balki imkoniyat eshiklarini ochishga turkib bo‘lishi ham mumkin. Qanday qilib deysizmi? Quyosh nuridan elektr energiyasi olishning yangi usullari orqali, albatta. Bugun elektr energiyasini tejash, toza va qayta tiklanuvchi manbalarni rivojlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar qilinmoqda. Bu, o‘z navbatida, yangi iqtisodiy, ekologik va texnologik imkoniyatlarni taqdim etadi.



Samarqand davlat universiteti doktoranti, Samarqand kvant markazi a’zosi Alisher Nurimov ixtiro qilgan quvurida elektr energiyasi hosil qiluvchi kvant nuqtali oyna ana shunday zamonaviy yechimlardan. Bunday oyna faqat elektr energiyasi hosil qilibgina qolmay, o‘rnatilgan har qanday binoga ko‘rk ham bag‘ishlaydi.

Texas universiteti professori Anvar Zohidov tashabbusi bilan 2023-yil avgustida Samarqand davlat universiteti huzurida Samarqand kvant markazi tashkil etildi. Markazning ilmiy-texnikaviy bazasini rivojlantirish, ilmiy quрилmalar sotib olish maqsadida 10 milliard so‘m ajratildi. Shuningdek, Innovatsion

rivojlanish agentligi va Jahon bankidan BIRD loyihasi asosida amaliy grant olindi. Bundan tashqari, qator muassasalarning og‘shimcha mablag‘i jalb qilindi.

Samarqand kvant markazining asosiy maqsad va vazifalari qatoriga xona haroratida ishlovchi kubitlar va kvant sensorlar yaratish ham kiradi. Alisher Nurimov bugun Innovatsion rivojlanish agentligi granti asosida “Organik bo‘yoqlar bilan modifikatsiyalangan galoid perovskit kvant nuqtalarining optik xususiyatlarini sintez va tadqiq qilish” hamda Jahon banki tomonidan ajratilgan grant bo‘yicha “Binolarga integratsiyalanadigan va aqlli issiqxonalar uchun nurlanuvchi kvant



nuqtali quyosh oynalari” mavzularidagi tadqiqotlar ustida ishlamoqda.

— 2023-yil dekabrda Turkiyaning Izmir texnologiyalar instituti (iYTE) fotonika bo‘limi ilmiy laboratoriyasida stajirovka o‘tdim, — deydi Alisher Nurimov. — Stajirovka davomida zamonaviy ilmiy quрилmalar bilan tanishish, ularidan foydalangan holda perovskit kvant nuqtalar, yuqqa qatlamlar yaratish, kelgusida xarid qilinadigan ilmiy-texnik quрилmalar ro‘yxatini boyitish kabi vazifalar qo‘yilgan edi. Bu vazifalar stajirovka davomida to‘liq

Kambag‘al oilaning o‘qish istagidagi farzandiga davlat pul ajratsa, yurt rahbari boshini silasa, kitobga oshno tutgani uchun qimmatbaho mashina sovg‘a qilsa... Aytinch-chi, bunday yurt yana qayerda bor?!

Shunday Vatan bilan faxrlanmaslik, bir bo‘lsak — yagona xalqimiz, birlashsak — vatanimiz degan chaqirgacha labbay deb javob bermaslik mumkinmi?!

O‘zgarishlar fonida yoshlarimiz, ayniqsa, qizlarimiz dunyoni o‘ziga qaratayotgani quvonarli. Diyora Keldiyorova, Asila Mirzayorova, Maftuna Ochilova kabi fidokor yoshlarimiz bor ekan, mashhur shoirimiz Hamid Olimjon “O‘zbekiston” she’rida bashorat qilganiday, hur o‘lkamizni o‘zga ellar sevib tilga olaveradi.

Bunday qizlarimizning zukkoligi, olgan bilimlar ushbu bashoratning hayotiy haqiqatga yaqin ekaniga shubha qilmayman. Shunday o‘ylar bilan Maftuna qizimizni yana so‘roqqa tutaman. Bu safar uning sevimli adiblari haqida so‘rayman. U sanay ketadi: “Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon, Said Ahmad, Ulug‘bek Hamdam, Matnazar Abdulhakim, Javlon Jovliyev, jahon adabiyotidan Dostoyevskiy, Tolstoy...”

Didi chakki emas! Buyuk faylasuflardan biri Lyudvig Feyerbax “Insonni tushunmoq uchun uni sevmok kerak!” degan edi. Insoniyatni sevish, inson rufasiga noil bo‘lish uchunchi, nima qilmoq kerak?! Menimcha, javobi juda oddiy. Kitob o‘qimoq, o‘qiganda ham uqmoq kerak. Prezidentimizning “Kitobsiz kelajak yo‘q!” degan chaqirig‘ida ana shunday hayotiy haqiqat bor. Inchinun, kitobsevari ko‘p bo‘lgan yurt jaholatdan yiroq bo‘ladi. Kitobxon inson halollikni kasb qiladi. Donishmandlar ta’biricha, o‘zini anglaydi. Xuddi Maftunaga o‘xshab...

U aksar yoshlarga kabi pista chaqib, ko‘chako‘yda behuda yummaydi yuxud telefonda soatlab gap sotib kunini o‘tkazmaydi. Zotan, bunga uning vaqtiyam, hushiyam yo‘q. Har bir kuni rejali bo‘lib, vaqtni eng bebaho ne‘mat deb biladi. Hayotida oyni yotog‘iga kuzatib qo‘ygan tular, quvoshini uyg‘otgan tonglar ko‘p bo‘lgan. Ana shunday kuchli itilish, olg‘a yurish ishtiyoiqi uni bir zum tark etgani yo‘q. Buning natijasini esa bugun barchamiz ko‘rib, bilib turibmiz. Uning kamtarin, kamsuq onasi sinovlarga bardosh berdi. Ertangi kuniga ishonadi. Bolalari kelajagi yorug‘ bo‘lishini so‘rab, qo‘lini duoga ochdi. Muhimi, o‘zini yo‘qotib qo‘ymadi. Qancha qiyin bo‘lsa ham o‘z mehnati bilan halol rizq topishga intildi. Undan namuna olgan bolalari onasiga munosib farzand bo‘ldi. Bu oilaning ma’naviy quvvatini davlatimiz rahbari boshqalarga ibrat qilib ko‘rsatgani bejiz emas! Bunga ularning uyiga mehmonga kelib, yana bir karra amin bo‘ldim. Kamtarin, tilida doim shukrona.

— Shu kunlarga yetkazganiga shukur, qizim ozgina o‘qib, birinchi o‘rinni olgani uchun Prezident bilan uchrashdi, — deydi Maftunaning onasi Dildoraxon. — Gazetada o‘qidim, davlatimiz rahbari: “Oddiy bir qizimiz shu gaplarni yig‘lab-yig‘lab aytganida, mening ko‘nglim ham beixtiyor boshqacha bo‘lib ketdi. Muni men ham so‘z bilan ifoda etib berolmayman. Qarang, ezgulik qanday buyuk, qanday qudratli kuch!” deb aytibdi. Bizni xuddi qahramonlarday maqtatibdi. Endi shunga munosib bo‘lishga harakat qilaypmiz.

Qahramonimiz uydian qaytar ekanman, Maftuna haqida o‘ylab keldim. U oilasida yaxshi tarbiya oldi. Qolaversa, yangi O‘zbekistondagi o‘zgarishlar, kitobxonlik targ‘iboti, ta’limga qaratilgan imkoniyatlar Maftunaga ishonch berdi. Ana shu ishonch sabab u hayot sinovlari orasidan katta yutuqlar bilan o‘ta oldi. Maftunaning yutuqlari zamirida mana shunday hayotiy haqiqatlar bor. Shu bois, Maftuna kabi yoshlar zamonamiz, O‘zbekistonning tom ma’nodagi qahramonlaridir. Ular hozirgi o‘zgarishlarning hayotiy misoli. Shular haqida o‘y surib kelar ekanman, sevimli shoirimiz Halima Xudoyberdiyevaning o‘tli satrlarini takrorlagim keldi:

Onaginam,
Dorilamon kunlar keldi, shafaqlari ol...

Sayyora SOLAYEVA,
jurnalist

bajarildi. Bundan tashqari, 2024-yil noyabrda Qozog‘istonning Olmaota shahrida bo‘lib, optik mikroskoplar, SEM, TEM kabi nanometr aniqlikda kvant obyektlar tasvirini olish mumkin bo‘lgan zamonaviy texnologiyalar, o‘lchashda namunalarga qo‘yiladigan talablar bilan tanishdim. Bundan asosiy maqsad yaqin kelajakda shu kabi quрилmalarni xarid qilganimizda ular bilan ishlash ko‘nikmasiga ega bo‘lishidir.

Bozor iqtisodiyoti davrida barchamiz ham cho‘ntakni, ham sog‘liqni, ham tabiatni asrash yo‘lini izlaymiz. Bu kabi izlanishlar esa bizni maqsadga tobora yaqinlashtiradi. Mavjud texnologiyalar insoniyat hayotini butunlay o‘zgartira olar ekan, jadal tus olishga bu raqobat muhitida har bir davlat o‘z o‘rniga ega bo‘lish uchun intiladi. Mamlakatimizda ham o‘z ishinig ustasi bo‘lgan yosh mutaxassislarni jalb etgan holda zamonaviy laboratoriyalar tashkil etish orqali kvant texnologiyalar borasida ulkan natijalarga erishishga umid va ishonch yuqori.

Aziza SHAROFIDDINOVA,
O‘ZJOKU talabasi

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalarini tahririyati” DM

MUASSIS:
**O‘zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi**

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqzir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlari chop etilishiga “Kolorpak” MCHJ mas’ul.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — G-546.
36390 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog‘oz bichimi** A2. Bahosi kelishilgan narxda.

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi boshmaxonasida chop etildi.
Boshmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Sardor Tolliboyev
Musahhih: Asliddin Abdurazaqov
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy

O‘zA yakuni — 22:00 Topshirildi — 00:05